

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK TILI YO'NALISHI**

4-kurs 403 - guruh bitiruvchisi

HUSAINOVA MUHAYYO MAHMUDJON QIZINING

bakalavr darajasini olish uchun

TABIY HOLAT BELGISINI IFODALOVCHI

BIRLIKLAR TAHLILI

mavzusidagi

**BITIRUV-MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar:

f.f.d. H. Usmonova

Namangan – 2016-yil

TABIIY HOLAT BELGISINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR TAHLILI

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I BOB.LEKSIK SATH SISTEMA SIFATIDA	
1.1. Lug'aviy sathda leksik-semantik munosabatlar.....	8
1.2. O'zbek tilshunosligida belgi bildiruvchi leksemalar tadqiqi.....	11
II BOB. BELGI BILDIRUVCHI SO'ZLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI	
2.1. Predmet belgisini bildiruvchi so'zlar.....	23
2.2. Harakat belgisini bildiruvchi so'zlar.....	31
III BOB. TABIIY HOLAT BELGISINI BILDIRUVCHI BIRLIKLAR SEMANTIKASI	
3.1. Tabiiy holat belgilarini ifodalovchi birliklar.....	35
3.2. Jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi birliklar.....	37
3.3. Ruhiy holat ifodalovchi so'zlar semantikasi.....	39
3.4. Ijtimoiy holat ifodalovchi so'zlar semantikasi.....	42
3.5. Tinch va notinch holatni bildiruvchi sifatlar.....	48
Umumiy xulosalar.....	50
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	52

KIRISH

Istiqlol davri butun xalqimiz uchun yuksalish va har tomonlama rivojlanish, jahon bilan qadam-baqadam taraqqiy etish davri bo'lmoqda. Biz tanlagan yo'lning o'zimizga xos va o'zimizga mosligi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish masalasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilanganida ko'rinadi. Mustaqillikning ibtidosidayoq ma'naviy yuksalishning mezonlari, tamoyillari ishlab chiqilgan bo'lsa, Yurtboshimizning **«Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch»** asarida taraqqiyotning o'zbek modeli ma'naviy yuksalishga asoslanishi nazariy jihatdan dalillab berildi. Yurtboshimiz talqiniga ko'ra, **«...ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»**.¹

Biz ma'naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga intilayotgan ekanmiz, hech qachon o'z qobig'imizda o'ralashib qolmasligimiz kerakligi, qisqacha aytganda, boshqa sohalar kabi adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Bu borada G'arb bilan birga Sharq mamlakatlari, jumladan, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya bilan Misr, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt kabi arab mamlakatlari bilan aloqalar kuchaytirilishi tavsiya etiladi.

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy borlig'ini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi.²

¹ Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.

² Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.48.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o'rin egallab borayotgan O'zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo'lga kiritgan ulkan marralariga, el-yurtimizning ma'naviy ildizlari, urf-odat va an'alariga, bir so'z bilan aytganda, o'zbek xarakteri, o'zbek tabiatiga butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bormoqda. Tabiiyki, uzoq-yaqindagi xorijiy do'stu birodarlarimiz, jahon jamoatchiligi eng avvalo bizning zamonaviy adabiyotimiz va san'atimiz orqali qiziqtiradigan ana shunday savollarga javob topishni istaydi. Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Lekin, afsuski, bu masalada biz hali-beri ko'zga ko'rinadigan amaliy natijalarga erisha olganimiz yo'q. Ilgari o'zbek adabiyotining namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, ya'ni rus tili orqali amalga oshirilardi. Bu borada qilingan katta ishlarni munosib baholagan holda, endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan G'arb va Sharq tillariga tarjima qilishga haratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san'atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari bizda mavjud. Uzoq yillar davomida o'zbek adabiyotini to'g'ridan-to'g'ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan iste'dodli o'g'il-qizlarimizni mana shu mashaqqatli, ayni paytda olijanob ishga jalb etish, bu masalani yechish bilan bevosita bog'lik bo'lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo'lur edi.³

Prezident Islom Karimov o'zining **“O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”** asarida til haqida shunday deydi:

“Til haqidagi ba'zi mulohazalar bilan o'rtoqlashmoqchiman. Birinchi navbatda shuni aytmoqchimanki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hech kimda hech qanday shubha tug'dirmasa kerak. Bu allaqachon yuz berishi lozim bo'lgan hodisa ediki, aholimiz ko'pchiligining qonuniy talabi ham shunday

³ Каримов И.А. Юсак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент, 2008. — Б. 139-140

edi. Binobarin, **o'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb juda to'g'ri aytishadi.**⁴

Biz, mustaqillik davrida ta'lim olayotgan yoshlar Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlaridagi qimmatli fikrlaridan ruhlangan va xulosalar chiqargan holda o'z ona tilimiz va adabiyotimizni puxta o'rganishimiz, xorijiy tillarni yaxshi o'rganib u orqali chet tilidagi adabiyotlarni o'qib, o'z ona tilimizga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilishimiz zarur bo'ladi.

Mustaqillik yillarida ma'naviyatning ajralmas va uzviy bir qirrasini bo'lgan o'zbek tili taraqqiyoti hamda ravnaqiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Joriy yilning 13 may kuni Prezidentimiz tomonidan Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilishi fikrimiz dalilidir.

Mavzuning dolzarbligi. Tilshunosligimizda so'z turkumlarini leksik-semantik, morfologik, uslubiy, formal – funksional jihatdan o'rganish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, o'zbek tilidagi ot, sifat, son, sifat, fe'l, ravish kabi so'z turkumlarining leksik morfologik xususiyatlari ko'pgina tadqiqot ob'yekti bo'lgan. Shunga qaramay, sifat leksemalarning denotativ va konnotativ ma'nolarini sistem tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Hozirgi o'zbek tilida predmet belgisini ifoda qiluvchi leksemalarning spetsifikasini o'rganishga belgilangan bir necha tadqiqodlar mavjud. Ekspressivlik darajasi, ma'no ko'chish imkoniyati boshqa so'zlarga qaraganda kuchli bo'lgan sifat, sifat leksemalarining ayrim semantik tiplari tadqiqiga oid ishlar amalga oshirilgan. So'z turkumlari va ular orasidan alohida ahamiyatga ega bo'lgan so'z turkumi sifat so'z turkumidir. Bu turkumga oid so'zlar semantikasini, nutqda qo'llanishi va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki belgi bildiruvchi so'zlar tilda anchagina. Ularning qo'llanish darajasi va nutqiy ma'nolari, ma'no tovlanishlarini tahlil qilish tilimiz ifoda imkoniyatlari, boyligini to'laroq tasavvur qilish imkonini beradi.

⁴ Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 69.

Мавзунинг о‘rganilish darajasi. Ma’lumki, belgi bildiruvchi soʻzlar leksik-semantik guruhiga sifat va ravish turkumlariga oid soʻzlar kiritiladi. Oʻzbek tili belgi bildiruvchi soʻzlar semantikasi boʻyicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.. Ayniqsa, 1997-yilda Gʻ.Abdurahmonov va H.Rustamov tahriri ostidagi 10-11-sinflar uchun moʻljallangan ona tili darsligidan, bundan tashqari H.Abdurahmonov va A.Rafiev, D.Shodmonqulovalar tomonidan chiqarilgan “Oʻzbek tilining ommaviy grammatikasi”, 1972 yilda M.Asqarova va H.Abdurahmonov tomonidan chiqarilgan “Oʻzbek tili grammatikasining praktikumi” adabiyotlaridan va yana shunga oʻxshash bir necha asarlardan foydalanildi.

Sifat mazmun guruhlarini oʻrganishda Gʻ.Abdurahmonov, H.Abdurahmonov, A.Rafiev⁵, M.Asqarova⁶, S.Joʻrayev⁷, A.Ismoilov⁸, Oʻ.Lafasov, A.Nurmonov⁹, A.Sobirov, Sh.Yusupova¹⁰, H.Neʼmatov¹¹, A.Gʻulomov, M.Abdurahimova, R.Sirojiddinov¹², Q.Sultonova¹³larning xizmatlari katta boʻlgan. Ushbu mavzuni yoritishda oʻz qarashlarimizda sifat mazmun guruhlarini yoshlarga oʻqitish masalasiga alohida eʼtiborimizni qaratishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ishda sifatlarning mazmun guruhlarini va ularga xos daraja kategoriyasining semantik – konnotativ xususiyatlarini oʻrganishni maqsad qilib olib quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

a) oʻzbek tilshunosligida sifat soʻz turkumiga oid qarashlar, yondashuvlarni oʻrganish;

⁵ Абдурахмонов Х., Рафиев А., Шодмонкулова Д. Ўзбек тилининг оммавий грамматикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

⁶ Асқарова М., Қосимова Қ., Жамолхонова Х. Ўзбек тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1989.

⁷ Жўраев С. Она тили машқлар тўплами. –Андижон: 2003.

⁸ Исмоилов А., Лафасов Ў. Ўзбек тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

⁹ Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Шарқ, 2002.

¹⁰ Юсупова Ш. Ноанъанавий дарс давр талаби. –Андижон, 2002; Юсупова Ш. Ўқитувчи китоби. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.

¹¹ H.Neʼmatov, A.Gʻulomov, Abdurahimova, M.Qodirov, Ona tili 7-sinf uchun darslik. –Toshkent: Oʻqituvchi, 2002.

¹² Сирожиддинов Р. Грамматик топишмоқлар. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

¹³ Султонова Қ. XXI аср муаллимаси. –Тошкент: Шарқ, 2002; Султонова Қ. Она тилидан дарс турлари. –Toshkent: Шарқ, 2004.

- b) sifat mazmun guruhlarining semantik-konnotativ xususiyatlarini aniqlash;
- d) jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi birliklarni tahlil qilish;
- e) ruhiy holat ifodalovchi so'zlar semantikasini yoritish;
- f) ijtimoiy holat ifodalovchi so'zlarning semantik -stilistik xususiyatini o'rganish;
- g) sifat ma'no turlarining nutq uslublarida qo'llanishni matn bilan bog'liq holda o'rganish.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda sifat leksemalar tarkibidagi denotativ va konnotativ semalar va ularning qo'llanishi aniqlandi. Sifat darajalarining nutqiy jarayondagi, grammatik-stilistik xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, nutq uslublarida sifatlarning ishlatilishi imkoniyatlari yaratib berildi.

Tadqiqot metodi. Ishda qiyoslash, sistem tahlil, tavsiflash, tasniflash, analiz, sintez usullaridan foydalanildi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, uch asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I BOB.LEKSIK SATH SISTEMA SIFATIDA

1.1. Lug'aviy sathda leksik-semantik munosabatlar

Lisoniy birliklar bir-birini eslatib turish xossasiga ega. Shu boisdan ular jamiyat a'zolari ongida bir tizimga birlashgan holda yashaydi. Masalan, *a* fonemasi *o* fonemasini, *u* fonemasi *o'* fonemasini, *i* fonemasi *e* fonemasini eslatadi.

Lekin *a* fonemasi *q* yoki *h* fonemasini eslatmaydi. Chunki ular ikki tizim - unli va undosh tizimiga kiradi. Unlilar bir-birini unlilar tizimida, undoshlar bir-birini undoshlar tizimida eslata oladi. Hatto *u* fonemasining *ani* eslatishi o'z tizimdoshi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Masalan, *a*, *o* fonemalari kichik, ichki tizim hosil qilib, birgalikda qolgan fonema juftliklarini eslatadi. Eslatish ikki tomonlama bo'lishi ham mumkin. Masalan, *yuz* leksemasi, bir tomondan *bet*, *chehra*, *jamol*, *oraz* kabi birliklarni, ikkinchi tomondan, *burun*, *ko'z*, *quloq*, *qosh*, *lab* leksemalarini eslatadi va bunda u ikki tizimning a'zosi hisoblanadi.

Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiy, o'xshash belgi-xususiyatga ega bo'ladi. Ana shu o'xshashlik va umumiylik ularni birlashtiruvchi, bir tizimda ushlab turuvchi belgilari sanaladi. Masalan, unlilar «sof ovozga egalik» umumiy belgisi ostida birlashadi. Ammo ular farqli belgiga ham ega bo'lishi shart. Masalan, *a* «lablanmaganlik», *o* «lablanganlik» farqlovchi belgiga ega, «kenglik» belgisi esa ularni birlashtiradi.

Umumiy belgisi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o'ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi *paradigma* deyiladi (*paradigma* grekcha *paradeigma* - *misol*, *namuna* degan ma'noni bildiradi). Paradigmani tashkil etuvchi birlik *paradigma* a'zosi deb yuritiladi. Paradigmada kamida ikkita a'zo b'lib, ular, asosan, bir lisoniy sathga mansub bo'ladi. Bir paradigma a'zolari orasidagi o'zaro munosabat *paradigmatik munosabat* deyiladi.

F.de Sossyur lisoniy mikrosistema va, umuman, lisoniy birlik orasidagi paradigmatic (assotsiativ, bir-birini eslatib turish, o'xshashlik) munosabatini lisoniy birlik uchun eng asosiy munosabat sifatida baholagan edi.

Bir paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

1. Paradigmadagi bitta birlik eslanganda, shu paradigmaga kiruvchi boshqa a'zo ham xotirlanishi (esga olinishi) zarur.

2. Muayyan nutq sharoiti uchun o'zaro paradigmatic munosabatda turgan birlikdan, ya'ni paradigma a'zolaridan bittasi tanlanishi lozim.

3. Bir paradigmanning a'zolari o'zaro o'xshashlik bilan birga, har bir a'zo ikkinchisidan qaysidir bir xususiy belgisi bilan farqlanib turishadi.

4. Paradigma a'zolari nutqda bir pozitsiyada (mavqeda) kelib, bir-birini ma'lum holatda almashtira olishi, o'rnini egallashi mumkin.

Lisoniy paradigma va uning a'zolariga nisbatan F.de Sossyur tomonidan qo'yilgan bu talab qariyb yuz yildan beri deyarli o'zgarishsiz saqlanib kelmoqda.

Paradigma, qamroviga ko'ra, katta va kichik yoki tashqi va ichki paradigmaga bo'linadi. Bu paradigmalar bir-biriga nisbatan olinadi. Masalan, undoshlar jarangli va jarangsizga bo'linadi.

Demak, *paradigmatic munosabat* atamasining muqobillari sifatida *o'xshashlik munosabati*, *assotsiativ munosabat* atamaları ham ishlatiladi. *Tizim* so'zi ham ko'p hollarda *paradigma* atamasi o'rnida ishlatiladi: *unlilar tizimi*, *kelishik tizimi* kabi. Jarangli va jarangsizlar alohida kichik yoki ichki paradigma bo'lib, undosh tizimi bir butun holda ularga nisbatan katta yoki tashqi paradigma deyiladi.

Lisoniy birliklar tizimining qaysi lisoniy sathga mansubligiga ko'ra, *fonetik*, *leksik*, *morfologik*, *sintaktik paradigma* farqlanadi.

Semantik-grammatik umumiylikka ega bo'lgan leksik birliklar lug'aviy paradigmani tashkil etadi. Sinonimik, partonimik, giponimik, ierarxionimik, graduonimik, funktsionimik qatorga birlashgan leksemalar tizimi, alohida lug'aviy guruh, lug'aviy-mavzuviy to'da, lug'aviy-mazmunliy maydon, so'z turkumi ham yirik (makro) paradigmani tashkil etadi.

Munosabat keng qamrovli tushuncha, bir butunlikning tarkibiy qismi - birliklari orasidagi o'zaro aloqa va bog'lanishni anglatadi. Bunday aloqa turlicha bo'lishi mumkin. Quyidagi gapga diqqat qiling: *Ularning ismi - Halim va Halim*. Bunday nutqiy birliklar turli munosabat bilan bog'langan. *Ular* so'zi *ism* so'zi

bilan, *u olmoshi -lar* qo'shimchasi bilan ketma-ket, zanjirsimon aloqada. Yoki *ism* so'zi uchta tovushning ketma-ketligidan iborat. Bunday chiziqsimon, liniyaviy ketma-ketlik aloqasi *sintagmatik aloqa* deyiladi. Sintagmatik aloqa lisonda ham, nutqda ham mavjud bo'ladi. Masalan, *kitob* leksemasi beshta tovushning birikuvidan iborat nomemaga ega bo'lib, u lisoniy birlik sanaladi. Shuningdek, yasama so'z *suvchi*, *ertapishar*, so'z birikmasi *kitobni o'qimoq* da ham birikuvchi a'zolar sintagmatik aloqada bo'ladi.

Sintagmatik aloqani sintaktik aloqadan farqlash lozim. Sintagmatik aloqa barcha til birliklariga xos ketma-ket bog'lanish bo'lsa, sintaktik aloqa so'z va gaplarning hokim-tobelik munosabati. Demak, sintagmatik aloqa va sintaktik aloqani butunlay boshqa-boshqa hodisalar ham, shuningdek, ularni bir-biriga aynan tenglashtirish, bir-birini qoplovchi tushuncha sifatida qarash ham mumkin emas. Sintagmatik va sintaktik aloqa butun-bo'lak munosabatida. Boshqacha aytganda, sintaktik aloqa sintagmatik aloqaning bir ko'rinish.

Ko'pincha sintagmatik aloqani nutqqagina xos deb tushunish ham uchraydi. Bu - hodisani tor ma'noda tushunish. Yuqoridagi gapda ishtirok etayotgan birliklar orasida pog'onali munosabat ham mavjud. Pog'onali munosabat deganda birlikning boshqasi tomonidan qamrab olinishi tushuniladi. Masalan, *Halim* va *Karim* so'zlari erkak kishining ismi bo'lib, ayolning ismi bo'lgan *Halima* so'ziga qarama-qarshi turadi. Lekin ularning barchasini *ism* leksemasi qamrab oladi. *ism* leksemasi esa, *nom* leksemasi bilan birgalikda, *ot* leksemasi tomonidan qamrab olinadi.

Bu pog'ona yuqoriga va quyiga qarab yana davom ettirilishi mumkin. Demak, *Calim*, *ism*, *ot* leksemalari pog'onali munosabatga kirishgan. Lisoniy birliklarning pog'onali munosabati ikki xil. Masalan, *daraxt* va *tana*, *ildiz*, *barg*, *shox* birliklarining o'zaro munosabati *daraxt* va *olma*, *o'rik*, *nok*, *gilos* leksemalarining o'zaro munosabatidan farq qiladi.

Avvalgi pog'onali munosabatda [*daraxt*] butunni va qolganlari qismni ifodalasa, keyingisida [*daraxt*] turni ifodalab, mevaning muayyan nomini

ifodalovchi birliklar turning ko'rinishi - jins sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi munosabatdagi birliklar *daraxt* leksemasining xususiy ko'rinishi - juz'iylashishi. Birinchisida esa bunday munosabat mavjud emas. SHu boisdan «*Gilos daraxtdir*» tarzidagi hukmni aytish mantiqiy. Biroq «*Ildiz daraxtdir*» deyish mumkin emas.

Tilshunoslikda lisoniy birlikning butun-bo'lak munosabati *partonimik* (*part* - qicm, bo'lak), tur-jins munosabati *giponimik munosabat* deyiladi. Partonimik munosabatga kirishuvchi qismni ifodalovchi birliklar *partonim*, giponimik munosabatga kirishuvchi jins nomlari *giponim* deyiladi. Butunlik *totonim* va tur nomi *giperonim* deyiladi.

O'xshashlik (paradigmatik) munosabati o'zaro teng (pog'onali munosabatdagi *daraxt* va *tana*, *daraxt* va *gilos* birliklari semantik qamrovi jihatdan teng emas edi), bir umumiy belgi asosida birlashib, qator hosil qiluvchi, ammo o'ziga xos belgilarga ko'ra farqlanib turuvchi birliklarning o'zaro aloqasini ifodalaydi.

Yuqorida aytilganidek, paradigma a'zolari o'zaro teng bo'lib, nutqda bir xil o'rinni egallaydi va bir xil xususiyatga ega bo'ladi. Berilgan misoldagi *Halim*, *Karim*, *Halima* so'zlari o'zaro teng, bir xil o'rinda kela oladi, biroq o'zaro farqlarga ham ega.

1.2. O'zbek tilshunosligida belgi bildiruvchi leksemalar tadqiqi

Tilshunoslikda sifat turkumiga oid so'zlarning o'rganilish tarixi juda qadim davrlarga borib taqaladi. Mahmud Koshg'ariyning "Devon –u lug'atit turk", Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat–ul adab", "Asos-ul balog'a", Alisher Navoiyning "Muhokamat –ul lug'atayn" kabi asarlaridayoq sifatlarning belgi ifodalash xususiyati, ularningturli xil tashbehlar va badiiy san'atlarni yuzaga keltirishdagi imkoniyatlari haqida muayyan fikr–mulohazalar mavjud edi.

Turkiyshunoslikda ham sifat turkumiga oid so'zlarning o'rganilishi o'ziga xos tarixga ega. N.K.Dmitriyev, A.P.Yakubinskiy, L.N.Xaritonov, N.F.Katanov, P.M.Melioranskiy, M.A.Kazembek, A.N.Kononov, A.M. SHcherbak, S.N. Ivanov,

P.I.Kuznetsov, T.I.Grunin singari turkolog olimlar sifatlarning o'ziga xos grammatik kategoriyalarga ega ekanligi, yasaliş va otlashish xususiyati, gap tarkibidagi sintaktik vazifasi haqida muhim fikr–mulohazalarni bildirganlar.

O'tgan asrning 20–yillarida o'zbek tili masalalariga bag'ishlangan M.M.Faxriddinovning “Turkcha qoida” (1913), Elbekning “Bitik yo'llari” (1919), “Yozuv yo'llari” (1921), SHorasul Zunnunning “O'zbekcha qoidalar” (1925), Munavvar Qori, Qayum Ramazon, SHorasul Zunnunning “O'zbekcha til saboqligi” (1925), Y.D. Polivanovning “Kratkayagrammatikauzbekskogo yazıka” (1926) kabi bir qator darslik va qo'llanmalari nashr etilgan bo'lib, ularda boshqa so'z turkumlari qatori sifat turkumiga oid so'zlarning grammatik belgilari haqida ham salmoqli fikrlar bildirilgan edi.

Birinchi o'zbek professori, ham tilshunos, ham adabiyotshunos, davlat arbobi, shoir, yozuvchi, dramaturg kabi yuzlab talant qirralariga ega ijodkor–Abdurauf Fitratning ham o'zbek tilshunosligiga, xususan, morfologiyagaoid qarashlari qimmatli ahamiyatga ega. Fitrat birinchilardan bo'lib o'zbek tili grammatikasini yaratishga kirishgan olim edi. Uning “Sarf” (1925–1930) asarida o'zbek tili morfologiyasi, jumladan, sifat so'z turkumi haqida bahs yuritiladi. Bu asarda sifatlar dastlab tub va yasamalik darajasiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi, sifatlarning yasalişhi va bir qancha sifat yasovchi qo'shimchalar haqida ma'lumot beriladi. Fitrat, asosan, quyidagi sifat yasovchi qo'shimchalarni ta'kidlab ko'rsatadi: *-li (bilimli), -gi (qishgi), -imtil (sarg'imtil), -ish (sarg'ish), -iy (tarixiy), -ma (yozma), -roq (yaxshiroq), -g'on (bilag'on), -g'in (ozg'in), -(a)r (oqar suv)-gan, kan, -qan (o'qigan yigit), -lik (o'qurlik kitob)* va shu kabilar. Ko'rinadiki, Fitrat sifat yasalişhi doirasini o'sha vaqtda juda keng tushungan, ya'ni uning tarkibiga bevosita sifat yasalişhi (*-li, -ma, -iy* kabi) bilan birga, sifat darajalari, ozaytirma sifat shakllari, sifatdosh shakllarini ham kiritgan.¹⁴

Fitrat sifat va son so'z turkumlarini bir –biridan ajratmasdan, yaxlit holda o'rganish tarafdori edi. Buni olimning son turkumiga bergan quyidagi ta'rifidan ham sezish mumkin: “Sonlar bir narsaning, bir kishining (qandayligini emas),

¹⁴Qurbonova M. Fitrat – tilshunos. – Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 1996. 32-bet.

nechaligini–qanchaligini ko’rsatsalar ham, so’zlararo turishlari sifatdan ayirmasizdir. SHuning uchun ularni ham sifatlardan sanamoq mumkindir.”¹⁵

Sifat va son so’z turkumidagiumumiylik ularning gapdagi bajargan sintaktik vazifasi va birikma hosil qilishda tutgan o’rni bilan aloqador. Sifat ham son kabi gapda ko’pincha aniqlovchi vazifasini bajaradi, ot turkumiga oid so’zlardan oldin kelib, unga tobe bo’ladi. Fitrat sifatlarning “so’zlararo turishlari” deganda ularning ana shunday gapdagi vazifasi va o’rnini nazarda tutgan bo’lishi mumkin. Lekin o’sha 20–yillardayoq sifat va sonlarni yaxlit o’rganish, ulardan umumiy belgilar qidirishga intilish keskin tanqidga uchragan edi. Masalan, Nazir Hakim “O’zbek tili sarfi to’g’risida” (1925) nomli maqolasida quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Son bilan sifatni taqqoslash xato. CHunki sondagi turlar (miqdor, sara, bo’lim, chama, oshirma) va sifatdagi darajalar (tenglashtirish, orttirish, ozayish sifatlari) son tarkibida uchramaydi.”¹⁶

O’zbek tilshunosligida sifat so’z turkumiga oid ilk ilmiy tadqiqot 40–yillarning ikkinchi yarmida vujudga kelgan edi. Z.Ma’rufov 1947 –yilda Sankt–Peterburgda “O’zbek tili sifat darajalari”, 1950 – yilga kelib G’.Abdurahmonov Samarqandda “Hozirgi o’zbek tilida sifatlarning substantivatsiyasi (otlashishi)”, 1955 – yilda O.Madrahimov “Hozirgi o’zbek tilida yangi yasalgan sifatlar” mavzuidagi nomzodlik ishlari himoya qilingan edi. 1957–yilda O.Madrahimovning “O’zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir” nomli maqolasi e’lon qilingan edi.¹⁷

“Hozirgi zamon o’zbek tili” (1957) nomli tadqiqotda “Sifat” mavzusi yirik tilshunos olim Z. Ma’rufov qalamiga mansub. Bu ishda sifatlarning ma’nolari va grammatik xususiyatlari tahlili asliy va nisbiy sifatlarni bir –biridan farqlashdan boshlanadi. Z.Ma’rufov talqiniga ko’ra “asliy sifatlar ezgi a’zolari bilan bevosita bilib bo’ladigan predmetga xos belgini: predmetning rang–tusini, inson va

¹⁵Ko’rsatilgan asar. 8-12 – bet.

¹⁶Fitrat A. O’zbek tili qoidalari to’g’risida bir tajriba. Sarf, 1-kitob. Toshkent–Samarqand: 1930. – 56-bet.

¹⁷Madrahimov O. O’zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir// O’zFA Axboroti, ijtimoiy fanlar seriyasi, Toshkent, 1957. 41 – 47 – betlar.

jonivorlarning fizik xususiyatlarini va xarakterini bildiradi”.¹⁸ Nisbiy sifatlar esa predmetdagi belgini uning boshqa biror predmetga bo’lgan turlicha munosabatiga ko’ra bildiradi.¹⁹ Ishda sifatlarning ma’no turlari, yasash xususiyatlari, sintaktik vazifasi haqida ham asosli fikr–mulohazalar berilgan.

60–yillarga kelib o’zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid so’zlarni o’rganishga tilshunos olim M.Sodiqova katta hissa qo’shdi. Olima 1963–yilda “O’zbek tilida rang–tus bildiruvchi sifatlar” mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi. Ikki tomlik “Hozirgi o’zbek adabiy tili” (1966) va “O’zbek tili grammatikasi” (1975) nomli tadqiqotlarning “Sifat” mavzularini yozdi, 1974–yilda olimaning “Hozirgi o’zbek tilida sifat” nomli monografiyasi e’lon qilindi. Masalan, M.Sodiqova 1966–yilda e’lon qilingan “Hozirgi o’zbek adabiy tili” asarida sifatning ma’no jihatdan olti turini alohida–alohida ajratib ko’rsatgan edi:

- a) rang – tus bildiruvchi sifatlar: *oq, qora, qizil*;
- b) hajm bildiruvchi sifatlar: *keng, tor, uzun*;
- v) shakl bildiruvchi sifatlar: *dumaloq, yassi, qiyshiq*;
- g) maza bildiruvchi sifatlar: *achchiq, chuchuk, shirin*;
- d) xarakter va xususiyat bildiruvchi sifatlar: *yaxshi, yomon, a’lo, ablah, urishqoq, tirishqoq*;
- e) holat bildiruvchi sifatlar: *kasal, musofir, boy, kambag’al, yosh, qari, kal, kar, pesva* boshqalar.²⁰

Olima o’zining keyingi tadqiqotlarida sifatlarning ma’no turlarini yanada kengaytirib, ularning sonini 8–9 taga yetkazgan. Agar M.Sodiqovanning 1974–yilgi monografiyasida sifatlarning ma’no turlari to’qqiztaga yetkazilgan bo’lsa, “O’zbek tili grammatikasi” (1–tom, 1975) da bu haqdagi fikrlari yanada aniqlashtirilgan va kengaytirilgan.

O’tgan asrning 70–90–yillarida o’zbek tilshunosligida sifat turkumini talqin etish yanada chuqurlashdi va ilmiy tus oldi. Jumladan, keyingi o’ttiz–o’ttiz besh yil

¹⁸Ma’rufov Z. Sifat // Hozirgi zamon o’zbek tili (leksikologiya, fonetika, grafika va orfografiya, morfologiya), Toshkent: O’zFA nashriyoti, 1957, 343 – 357 – betlar.

¹⁹Ko’rsatilgan asar. 343 – 357 - betlar

²⁰Sodiqova M. Sifat // O’zbek tili grammatikasi, ikki tomlik, 1-tom. –Toshkent: Fan, 1976, 301-bet.

davomida o'zbek tilshunosligida tilning grammatik qurilishini, lug'aviy tarkibini o'rganish sohasida sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi. Bunday yutuqlar bevosita sifat so'z turkumini o'rganish sohasiga hamaloqadordir. Masalan, M.Holiyorov "Ot negizlaridan so'z yasovchi affikslar haqida" nomli maqolasida *-chi*, *-dosh*, *-kash*, *-korsingari* ot yasovchi qo'shimchalarning xususiyatlarini kengroq tahlil etib, quyidagi xulosani bayon etadi:

"Demak, "shaxs oti yasovchi" deb yuritiladigan affikslar yordamida yasalgan so'zlar otlarga (shaxs otlariga) emas, sifatlarga xos ma'no va grammatik xususiyatlarga ega. Chunki bu tipdagi affikslar, asosan, otlarga (otlashgan boshqa so'zlarga ham) qo'shiladi va otdan ot emas, otdan sifat yasaydi. Shuning uchun, bizningcha, ot negizlariga qo'shib, yangi ma'noli so'z yasovchi *-chi*, *-dosh*, *-kash*, *-kortipidagi* affikslarni sifat yasovchilar, ular yordamida yasalgan so'zlarni esa yasama sifatlar deb atash lozim bo'ladi. *Ishchi*, *kolxozchi*, *paxtakorkabi* yasama sifatlarning kontekstdan tashqarida ham ot kabi tushunilishini esa substantivatsiya hodisasi deb qarash kerak".²¹

G. Sodiqova *achchiq*, *harir*, *qattiq*, *silliq*, *shirin* kabi sifat leksemalarni "sezgi ifodalovchi sifat sememalari" nomi ostida o'rganib, ularning komponent tarkibini belgilashga harakat qildi.²²

U.Tursunov, J.Muxtorovlar tomonidan yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (birinchi nashri, 1965; ikkinchi nashri 1975; uchinchi nashri 1992) asarida sifatning ma'nosi va grammatik belgilari talqiniga keng o'rin berilgan. Bu ishda uning oldingi nashrida bo'lganidek, sifatlarning otga ko'chishi va otlashuvi (substantivatsiyasi) hodisalarini bir-biridan farqlashga harakat qilinadi. "Sifatning otga ko'chishi va otlashuvi, boshqa-boshqa hodisalardir. Bir turkumdagi so'zning boshqa turkumga ko'chishi deganda til taraqqiyoti natijasida bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tgan so'z nazarda tutiladi. Bunda mazkur so'zning grammatik mohiyati, qisman ma'nosi o'zgaradi. Sifatlarning otga ko'chishi ham shunday

²¹Holiyorov M. Ot negizlaridan so'z yasovchi affikslar // O'zbek tili va adabiyoti, 1973, 1-son, - B.82.

²²Sodiqova G. Sezgi ifodalovchi sifat sememalari // O'zbek tili va adabiyoti, 1977, 3-son, - B.53-55.

hodisadir. Masalan, *qiz, o'g'il, erkak, ayol, kasal, chol, kampir* kabi so'zlar asli sifat bo'lib, keyinchalik otga aylangan. Bunday so'zlarning otga ko'chganini yoki ko'chayotganini ko'rsatuvchi belgi ularning sifat bilan ifodalangan aniqlovchi olishida ko'rinadi: *Yosh yigit, qari chol, chiroyli ayol* kabi.

Sifatning (yoki boshqa biror turkum so'zining) otlashuvi esa uning gapda ot bajaradigan sintaktik vazifada kelishidir...”.²³

S.Usmonovning M. Mirzayev va I. Rasulovlar bilan hamkorlikda yozgan “O'zbek tili” nomli asari (1978)da ham sifatlar tahlili ancha ixcham berilgan. Lekin bu asarda, bizningcha, bir noaniqlikka yo'l qo'yilgan, ya'ni rus tili orqali kirgan ba'zi sifatlar tarkibida uchrovchi-*ik (pedagogik), -iv (obyektiv, progressiv), -l, -al (formal, gorizontal), -on (intonatsion)* kabi affikslar sifat yasovchi affikslar deb talqin qilinadi.²⁴ Bu fikrga O. Madrahimov ham o'zining “O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir” nomli maqolasida qo'shilib, yangi yasalgan sifatlar haqida so'z yuritir ekan, rus tili orqali o'zlashgan sifatlar tarkibida qo'llanuvchi *-ik, -iv, -al, -l, -ion, -sion, -atsion* affikslarini o'zbek tilida mustaqil qo'llanuvchi, o'zlashgan sifat yasovchi affikslar, deb hisoblaydi. Bu mulohaza dots. T.Xo'jayevning quyidagi fikrlari orqali inkor etiladi: “Bizningcha, *antik, kosmik, genetik, simfonik, dekorativ, operativ, kooperativ, aktiv, real, optimal, internatsionalsifatlari* yasaluvchi negizlarga va yasovchi affikslarga ajralmaydi. Demak, ular affiksal formali sifatlar emas. Chunki ularo'zbek tilida yasalgan emas, balki o'zbek tiligacha yasalgan. O'zbek tilida esa ular bitta morfema holida qisqartirish bilan hozirgi holatida, aniqrog'i affiksliformada emas, balki morfemalarga ajralmaydigan negiz formasida qabul qilingan. Demak, ular etimologik jihatdangina yasama sifatlardir. O'zbek tilida esa ular nisbatan yangi so'zlar bo'lgani holda, morfologik strukturasi jihatidan tub sifatlardir.”²⁵ Ayni fikrlarga Zafar Pardayev o'zining “O'zbek tilida sifatning semantik-uslubiy

²³Tursunov U., Muxtorov J. Sifat // Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili, qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. 280 – 287 –bet.

²⁴Usmonov S. Sifat // Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1978, 100 – 109 – betlar.

²⁵Xo'jayev T., Mullajonova H. Yangi yasalgan sifatlar tahliliga tanqidiy obzor // O'zbek tili grammatik qurilishi, leksikologiyasi va dialektologiyasi masalalari, Samarqand: SamDU nashri, 1976, 89 – 99 –betlar.

xususiyatlari” ilmiy monografiyasida ham qo’shilajagini bildiradi va T.Xo’jayevning yuqoridagi fikrlarini qo’llab-quvvatlaydi. Bizning fikrimizcha esa, yuqorida tilga olingan o’zlashma qo’shimchalar internatsional qo’shimchalar bo’lib, bora–bora o’zbek tiliga ham singishib, yangi o’zbekcha so’zlar yasalishiga xizmat qilishi ham mumkin. Buni biz o’zbek tilining tarixiy taraqqiyot evolutsiyasi orqali yaqqol isbotini ko’rishimiz mumkin. CHunonchi arab tili orqali o’zlashgan-iy, -viy yoki fors tili orqali kirib kelgan *-xona, -kor, no-, bo-, be-*kabi qo’shimchalarning, dastavval, faqat o’zlashma so’z yasalishidagi ishtirokiga guvoh bo’lgan bo’lsak, keyinchalik bu qo’shimchalar o’zbek tili affiksalar tarkibiga shu qadar singib ketdiki, endilikda biz ulardan bemalol sof o’zbekcha so’zlar yasashda ham foydalanyapmiz. Til taraqqiyotida bunga o’xshash misollarga ko’plab duch kelishimiz mumkin. Rus tili orqali o’zlashgan ba’zi qo’shimchalarning taqdiri ham xuddi shu ko’rinishda davom etsa, ajabmas. CHunki til hamonki, ijtimoiy hodisa ekan, unda turfa xil o’zgarishlar va yangilanishlar sodir bo’lishi juda tabiiy hol hisoblanadi.

“Hozirgi o’zbek adabiy tili” (1-qism,1980) nomli darslik o’zbek tilshunosligida salmoqli o’rin tutadi. Ana shu asardagi “Sifat” mavzusi yirik tilshunos olim Azim Hojiyev qalamiga mansub.²⁶ Bu darslikda sifatlarning grammatik xususiyatlarini tahlil etishda oldingi ishlarga nisbatan farqli tomonlar ancha ko’proq. Eng muhimi, bu ishda sifatlarning asliy va nisbiy deb ikki turga ajratilmagan, bunday yo’l tutishning sababi ham ko’rsatilmagan. Sifatlarda oddiy (normal) daraja, orttirma daraja va ozaytirma daraja mavjudligi ta’kidlangan. Orttirma daraja fonetik usul bilan (*dum–dumaloq, ko’m–ko’k*), leksik usul bilan (*nihoyatda baland, behad xursand, juda go’zal*), ozaytirma daraja esa leksik usul bilan (*sal durust, bir oz yaxshi, xiyol ochiq*), morfologik usul bilan (*kattaroq, kichikroq, sarg’ishroq* kabi) hosil bo’lishi izohlab berilgan.

Tilshunos olim A.Hamitova 70–80–yillarda turkiy tillarda so’z ma’nosining kuchaytiruv vositalarini o’rganish sohasida qator ishlarni amalga oshirdi.

²⁶Hojiyev A. Sifat // Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o’zbek adabiy tili, 1- qism. – Toshkent: O’qituvchi, 1980, 251 – 258 – betlar.

Olimaning nomzodlik dissertatsiyasi, bir necha ilmiy maqolalari hamda “Turkiy tillarda soʻz maʼnosining analitik yoʻl bilan kuchaytirilishi” nomli monografiyasi (1984) xuddi shu muammoni oʻrganishga bagʻishlangan edi. Olimaning kuzatishlaridan shu narsa maʼlum boʻladiki, oʻzbek tilida *juda, eng, gʻoyat, nihoyatda, bir, biram tim, naq, zap, behad, benihoya, cheksiz, beqiyoskabi* soʻzlar sifat darajalari singari belgini kuchli, emotsional boʻyoqdor shaklda ifodalashga xizmat qiladi.²⁷

80–yillarda S. Gʻiyosov oʻzbek tilidagi subyektiv baho sifatlarining semik tahlilini amalga oshirdi, shu mavzuga oid bir necha ilmiy maqolalar yaratdi²⁸ va nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Masalan, S. Gʻiyosov “Oʻzbek tilida asliy sifatlarining koʻchma baholash maʼnosi haqida” nomli maqolasida dastlab asliy sifatlarni maʼno jihatdan tabiiy (fizik) xususiyatlarni ifodalovchi (*katta tosh, kichik tosh* kabi) va subyektiv baho maʼnolarini ifodalovchi (*yaxshi, chiroyli* kabi) deb ikki guruhga ajratadi. SHundan keyin fizik belgi ifodalovchi sifatlar koʻchma maʼnoda qoʻllanganda ularning semantik strukturasida roʻy beradigan oʻzgarishlarni birma–bir tahlil etadi, buning uchun *ogʻir* soʻzining turli matnlarda qoʻllanilishiga oid misollarni keltiradi.

Maʼlumki, oʻzbek tili semasiologiyasining asosiy nazariy muammolaridan biri leksik materialni tahlil qilish birligi va bu birliklarning asosiy lugʻaviy birlik (soʻz)ga munosabati masalasini aniqlashdir. SHuningdek, oʻzbek tili lugʻat tarkibining leksik–semantik guruh (LSG) larini sinchiklab oʻrganish oʻzbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb muammolardan bir sanaladi.²⁹ Masalaga shu nuqtai – nazardan qaraganda, S. Gʻiyosovning subyektiv baho ifodalovchi (SBI) sifatlarni sakkiz ichki LSG ga ajratib tahlil qilishi, bu LSG larning bir – biridan

²⁷Hamitova A. Turkiy tillarda soʻz maʼnosining analitik yoʻl bilan kuchaytirilishi. – Toshkent: Fan, 1984. – 104 b.

²⁸Gʻiyosov S. Oʻzbek tilida asliy sifatlarining koʻchma baholash maʼnosi haqida // Oʻzbek tili va adabiyoti, 1982, 4 – son, 51 – 54 – betlar.;

Gʻiyosov S. Asliy sifatlarining ikki semantic gruppasi haqida // Oʻzbek tili va adabiyoti, 1984, 1-son, 58 – 60 – betlar.;

Gʻiyosov S. Oʻzbek tilida subyektiv baho sifatlarining semik tahlili // Oʻzbek tili va adabiyoti, 1986, 2 – son, 28 – 32 – betlar.

²⁹Qoʻchqortoyev I. Soʻz maʼnosi va uning valentligi (oʻzbek tilidagi nutq feʼllari materiali asosida). – Toshkent: Fan, 1977. – 168 b.

semik tarkibi jihatidan farqli tomonlarini ko'rsatishi diqqatga sazovor. Masalan, S. G'iyosovning fikriga ko'ra, subyektning aqliy faoliyatiga ko'ra belgini ifodalovchi LSGga *aqlli, dono, oqil* kabi sifatlar kiradi. Ular subyektning aqliy faoliyati bahosini turli jihatdan xarakterlaydi.³⁰

O'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumini o'rganish bilan bog'liq har bir ilmiy tadqiqotning o'ziga xosligi, izlanish metodlarining xilma – xilligi ko'zga tashlanadi. M. G'anixo'jayeva esa nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi rang bildiruvchi sifatlarini qiyosiy – tarixiy yo'nalishda tadqiq etib, ularning rivojlanish dinamikasini, sof turkiy va o'zlashgan rang bildiruvchi so'zlar qatlamini aniqlagan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eski o'zbek tili yozma yodgorliklarida *qizil, ko'k yashil* singari rang bildiruvchi so'zlar ko'chmama'nolarda qo'llanmaydi, substantivatsiyaga uchragan *qoraso'zi* esa eng ko'p – sakkiz ma'noda qo'llanilishi ma'lum bo'ladi; rang bildiruvchi so'zlarning yozma yodgorliklar tilida qo'llanish chastotasi quyidagicha: *qora* – 18,8 %, *oq* – 15,8 %, *qizil* – 6,89 %, *ko'k* – 3,5 %, *yashil* – 2,5 %, *sariq* – 2,5 % kabilar.

Y. Tojiyev o'zbek tilshunosligida affiksial sinonimiya muammolarini tadqiq etishga salmoqli hissa qo'shdi. Jumladan, uning qator ilmiy maqolalari,³¹ monografiyasi sifat yasovchi affikslarning ma'nodoshligi masalasini o'rganishga bag'ishlangan. O'zining bu sohadagi izlanishlarini olim keyinchalik doktorlik dissertatsiyasida umumlashtirdi. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida ot turkumiga oid so'zlardan sifat yasab, o'zakdan anglashilgan obyektga umuman ega ekanlikni bildiruvchi -li// -dor, -li// -ser, -dor// -ser, -li// -ba, -li// -kor, -li// -mand, -li// -don, -li// -nok -li// -chan, -li// -toy, ba-// -dor, ba-// -chan kabi so'z yasovchi affikslar sinonimik juftliklarni hosil qiladi. SHuningdek, ot turkumiga oid so'zlardan sifat yasab, o'zakdan anglashilgan obyektga ega emaslikni bildirgan -

³⁰G'iyosov S. O'zbek tilida subyektiv baho sifatlarining semik tahlili // O'zbek tili va adabiyoti, 1986, 2-son, 28 – 32 – betlar.

³¹Tojiyev Y. -li, -dor va -ser affikslarining sinonimik munosabati haqida // O'zbek tili stilistikasi masalalari, ToshDU asarlari, 427 – chiqishi, Toshkent: 1972. – 181 – 186 – betlar;

siz//be-, -siz//no-, be-//no-, -siz// nim- kabi soʻz yasovchi affikslar ham tilimizda sinonimik juftliklarga ega ekanligini taʼkidlab oʻtadi.

R.R. Lutfullayeva nomzodlik dissertatsiyasida rus va oʻzbek tilidagi baynalminal asosga ega boʻlgan *aktiv, intensive, progressiv, agressiv, agroteknik, omonimik, sinonimik, antonimik, funksional, internatsional, okkazional, ekspressiv, emotsional, ratsional* singari sifatlarning qoʻllanish xususiyatlarini, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish usullarini, muqobil variantlarini oʻrgangan edi.

90- yillarda nashr etilgan “Oʻzbek tilining amaliy grammatikasi” (1992), “Oʻzbek tili jadvallarda” (1993), “Oʻzbek tili” (ixtisoslik grammatikasi, 1993) kabi qoʻllanma va darsliklarda sifat turkumiga oid soʻzlarni tahlil qilishda anʼanadan chekinish hollari unchalik koʻzga tashlanmaydi. Masalan, “Oʻzbek tilining amaliy grammatikasi” (1992) asarida sifatlarning qoʻllanish xususiyatlarini yoritishga alohida eʼtibor berilgan. Ozaytirma va kuchaytirma sifatlari (*oqish, kattagina, juda nafis*), bosh qismi takrorlangan sifatlari (*koʻm-koʻk, qop – qora, yam – yashil, kap – katta*), koʻchma maʼnoli sifatlari (*tulkiodam, anor yuz, tosh yurak*), asosan, turli uslubiy maqsadlarda qoʻllanishi taʼkidlab koʻrsatilgan.³² “Oʻzbek tili” (1993) nomli darslikda esa sifat haqida quyidagi ixcham maʼlumot keltiriladi: “Sifat predmetning belgisini bildirib, asliy, nisbiy, ozaytirma va kuchaytirma darajalari bilan xarakterlanadi. Gapda esa aniqlovchi vazifasini bajaradi”.³³

“Oʻzbek tili jadvallarda” asari mualliflari sifatning maʼno turlarini yettiga ajratib koʻrsatgan: a) xususiyat bildiruvchi sifatlari: *kamtar, quvnoq*; b) holat bildiruvchi sifatlari (*keksa, tinch*); v) shakl bildiruvchi sifatlari (*novcha, yassi, uzunchoq*); g) rang – tus bildiruvchi sifatlari (*qizil, sariq*); d) maza – taʼm bildiruvchi sifatlari (*achchiq, nordon*); e) hid bildiruvchi sifatlari (*xushboʻy, qoʻlansa*); y) narsa – buyumning vaqtga koʻra belgisini bildiruvchi sifatlari (*kuzgi, kechki*).³⁴

³²Abdurahmonov H., Rafiyev A., Shodmonqulova D. Oʻzbek tilining amaliy grammatikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1992. 142 – bet.

³³Nazarov K., Sayfullayeva R., Ubaydullayeva M. Oʻzbek tili (ixtisoslik grammatikasi). – Toshkent: Oʻqituvchi, 1993. – 30 – bet.

³⁴Nurmonov A., Rasulov R. Oʻzbek tili jadvallarda. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1993. – 184 – bet.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ham sifatlarning belgi – xususiyatlari, semantik tasnifiga doir qimmatli ma’lumotlar berilgan. Bu darslikda sifat leksemalar o‘zbek tilining substansial yondashuv nazariyasi nuqatai–nazaridano‘rganilgan bo‘lib, ba’zi bir mulohazali o‘rinlarga ham ega. Darslikda sifatning umumiy grammatik ma’nosi (UGM) xususida quyidagi ma’lumotlarga duch kelishimiz mumkin: “Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi darajalanuvchi so‘z sifat deyiladi: *qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq*.”

Boshqa so‘z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg‘unbelgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, *Gul – qizil* deganda turg‘un (statik) belgi, *Gul qizardi* deganda esa o‘zgaruvchi (dinamik) belgi namoyon bo‘lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, *qizg‘ish - qizil – qip – qizil*. Boshqa turkum anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo‘q. Sifat gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, qisman kesim, hol vazifasida keladi.

Shu asosda sifatning umumiy Grammatik ma’nosini “asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildirib, gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ba’zankesim, ayrim hollarda holvazifasida kelish” ko‘rinishida tiklash mumkin. Belgi tushunchasi o‘z ichiga rang – tus, hajm – shakl, xarakter, vazn, maza kabilarni qamrab oladi. Belgining xususiyatiga ko‘ra sifat ikkiga bo‘linadi: *asliy sifatlar* va *nisbiy sifat*.

Asliy sifat predmetning turg‘un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi: *qizil, sariq, katta, ko‘p, oz*.

Nisbiy sifatlar belgini qandaydir bir predmet, belgi, miqdor, o‘rin va harakatga nisbatan ifodalaydi: *moddiy yordam, siniq piyola, burchakdagi o‘tirgich*. Nisbiy sifatda darajalanish, qiyoslanish bo‘lmaydi. Lekin u darajabelgisiga ega bo‘lgan ravishdan asosan predmet belgisini bildirishi bilan farqlanadi. Asliy

sifatning barchasida daraja shakllari, ayrimida ozaytirma va kuchaytirma shakl bor.³⁵

Lekin shuni ham ta’kidlash lozimki, keying yillarda yaratilayotgan ayrim asarlarda sifat soʻz turkumi haqida ba’zi eski, shu soʻz turkumi tabiatiga mos kelmaydigan xususiyatlar haqida ham fikr–mulohazalar bayon etilmoqda. Jumladan, nofilologik guruh talabalari uchun chiqarilgan “Oʻzbek tili va adabiyoti” darsligida “sifatlarning ma’no turlari – asliy va nisbiy sifatlardan iborat bo’ladi. Asliy sifatlar predmetning asl belgisini bildiradi (*qizil, yashil, botir*) kabi. Nisbiy sifatlar yasama sifatlardir, ammo ba’zan ayrim bosh kelishik shaklidagi otlar ham sifat turlarigakiradi: *oltin soat, g’isht ko’prik, tulki odam* kabi”, deb yozilgan.

Shunday qilib, oʻtgan asrning 70 – 90 – yillarida oʻzbek tilshunosligi sifat turkumiga oid soʻzlarning grammatik va semantik xususiyatlarini tadqiq etish sohasida qator ishlarni amalga oshirdi.

³⁵ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 237 – bet.

II BOB. BELGI BILDIRUVCHI SO'ZLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI

2.1. Predmet belgisini bildiruvchi so'zlarning lisoniy xususiyatlari

Ma'lumki, predmet belgisini bildirib keladigan mustaqil so'zlar sifat turkumi ostida birlashadi. Sifat predmetning rangini, tusini (qizil olma, qora soch kabi) ta'mini, mazasini (shirin so'z, achchiq dori), vaqt o'ringa munosabatini (tongi shabada, qadimgi tarix) va boshqalarni bildiradi.

O'zbek tilida sifat oshqa so'z turkumlaridan o'ziga xos ma'noni, maxsus forma yasovchi va so'z yasovchi affikslarga ega ekanligi bilan farqlanib turadi.

Ayrim vaqtlarda esa hech qanday morfologik belgisiz ikki ot bir-biri bilan aniqlovchilik munosabatiga kirishganda birinchi ot ikkinchisiga nisbatan belgi ma'nosini bildirib kelgan bunday ot tamoman sifat turkumiga o'tib ketmaydi, balki ot turkumi doirasida qoladi: tosh yo'l, taxta ko'prik, atlas ko'ylak, oltin soat, kumush qoshiq kabi.

Sifatlar gapda asosan aniqlovchi, kesim, hol vazifasida keladi. Masalan: *Bobomning o'rtog'i gavgdali, novcha, burni uzunchoq kishi edi. Xo'jalik madaniyatning, madaniyat xo'jalikning yana chiroyliroq, kuchliroq kallasiga sira monand kelmas edi. Azonda uyg'onaman. Hammayoq oppoq qor.*

Sifat ma'lum bir belgini ko'rsatuvchi mustaqil so'z bo'lib, funksiyasi jihatdan boshqa so'z turkumlarining ma'lum xususiyatini konkretlashtiradi, uning ma'nosiga aniqlik kiritishga yordam beradi.

Sifat so'z turkumi poetik vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. U badiiy adabiyot tilida eng ko'p uchraydigan epitetlar xosil qilishda qo'llaniladi. Bundan tashqari, sifat turkumi sistemasida sinonimiya ham keng taraqqiy etgan. Bu sinonimiyaning funksional stillar nuqtai nazaridan chegaralanganligi ham sezilarli darajadadir. Bularning hammasi sifat so'z turkumining stilistik kategoriya sifatida talqin qilinishiga imkon beradi.

Predmetning belgisini bir necha jihatdan bo'lish mumkin. Bular quyidagilar:

1. Xususiyat bildiruvchi sifatlar. Bu turdagi sifatlar juda katta miqdorni tashkil

etadi. Bular insonlarning turli xarakter-xususiyatlarini shuningdek, predmetning belgilarini bildiradi. Masalan: *Onasi Nigora opa o'g'li Azizga mehribon edi*

Xususiyat bildiruvchi ba'zi sifatlar inson, jonivor va narsalarga nisbatan qo'llanilaveradi: Masalan: *Azizning otasi yaxshi odam bo'lganligini bilardi.*

Inson xarakter xususiyatlarini ifodalaydigan leksemalar o'zbek tilidagi sifatning boshqa ma'no turiga nisbatan miqdor jihatdan ko'p. bunday leksemalar tashqi, ichki ta'sir munosabatlariga ko'ra ijobiy va salbiy ma'noli bo'lishi mumkin. Bundan tashqari neytral ma'noli, ya'ni semantik tarkibida ijobiy ham salbiy ham semasi bo'lmagan sifatlar mavjud. "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan to'plangan besh mingga yaqin belgi bildiruvchi so'zlardan xarakter – hususiyat anglatuvchi sifatlar 20% (540 ta)ni tashkil etadi. Bulardan ikki yuzga yaqini ijobiy bo'yoqli, ikki yuz yetmishga yaqin salbiy bo'yoqli, yetmishtasi neytral ma'noli sifatlardir.

Tadqiqotning ayni qismida jiddiy, sho'x, mahzun, ma'yus, mungli kabi sifatlarning denotativ va konnotativ ma'nolari tahlil qilinadi.

Masalan, inson xarakter – xususiyatini anglatuvchi jiddiy so'zi "puxta o'ylab, chuqur mulohazalarga suyanib ish ko'radigan, mulohazali" belgi ma'nosini ifodalaydi. U yosh bo'lsa ham jiddiy, kichkina miyasi muhokamaga qobil edi. (O.Y). Bu so'z quyidagi konnotativ ma'nolarni ifodalab keladi: katta, kuchli so'zlariga sinonim sifatida qo'llanib, ma'noni kuchaytirish, ta'kidlab ko'rsatish maqsadida ishlatiladi: Hayotda bu qadar jiddiy qarshilikka duch kelmagan Ernazar polvon undan battar quturgan edi. (N. Q). Bu leksema "bosiq", "vazmin", kabi konnotativ ma'nolarni bildirishi mumkin: O'g'lini ko'rgach, odatiga xos jiddiy tarzda kampiriga sim qoqdi. (O'. H). O'rganilayotgan so'z "yaxshi", "yetarli" so'zlariga xos tushunchani bildiradi: Masala shundaki, u o'zi bu voqeaga jiddiy e'tibor bermagan edi. (N.H). Inson hayotidagi muayyan holat, voqealarning muhimligini bo'rttirib ko'rsatishda ham jiddiy so'zi ishlatiladi: O'ldimi yoki boshqa jiddiy sabab tufaylimi, ayтолmadi. (N. H).

2. Sifatning ma'no turlaridan biri sanalmish **holat** sifatlari predmet, inson, hodisa, hayvonga yoki vaziyatga xos holatni ifodalab, sifatning sifatning ma'no

turlari orasida eng katta guruhlardan birini tashkil etadi.³⁶ “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dan to‘plangan holat sifatlaridan insonga xos holat bildiruvchi so‘zlar soni 550 tani, predmetga xos holatni bildiruvchi sifatlar 780 tani va turli hodisalarning belgilarini bildiruvchi sifatlar 420 tani tashkil etishi ma’lum bo‘ldi.

Holat sifatlarining ayrim leksik – grammatik xususiyatlari bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ammo sifatning bu ma’no turlariga xos leksemalarning konnotativ ma’nolari mukammal tadqiq etilmagan. Ishning bu qismida yumshoq, qattiq, mayin, dag‘al singari leksemalarning denotativ va konnotativ ma’nolari tahlili keltiriladi. Masalan, yumshoq leksemasi “qo‘l tegsa botadigan”, “mayin” belgi ma’nosini bildiradi.³⁷ Mutal devorga suyak qo‘yilgan qo‘yilgan yumshoq kresloga o‘tirdi.(O. Y). Chaynalishi, yeyilishi oson non belgisi ushbu so‘z orqali anglashiladi: Men yumshoq non olib chiqaman, - dedi Sevargul o‘rnidan turishga chog‘lanib. (N. N). Mayin, nozik so‘zlariga sinonim tarzda “yoqimli”, “muloyim” ma’nosini bildiradi: men hozir sizni so‘roq qilmoqchi emasman, -dedi o‘sha yumshoq ovozda. (O. Y). So‘zlovchining predmet yoki hodisa belgisiga ijobiy munosabatini ifodalovchi yumshoq so‘zi yoqimli sifati kabi konnotativ ma’noni anglatadi: Bo‘yi past, qozoq bashara o‘sha nazoratchi boyagiday yumshoq tabassum bilan ostonadan bir qadam ichkari yurdi. (Sh).

She’riy nutq hissiyotchanlikning yuqori darajasidagi ifoda turi bo‘lib, uning tarkibidagi obrazli nutq va poetizmlar nutqda badiiylikni aks ettirib, turli stilistik funksiyalarni bajaradi. O‘zbek she’riyatida predmet va hodisalarni belgisini ifodalovchi so‘zlar, jumladan **yumshoq** so‘zi poetik epitet sifatida predmetning belgisini obrazli ifoda vositasida kuchaytirish uchun ishlatiladi: xalqimning ziynatiman, mehmonning izzatiman, qalbim yumshoq, oppoqdir, kelajagim porloqdir.

3. Shakl-ko‘rinish bildiruvchi sifatlar . Bu turdagi sifatlar insonning tashqi qiyofasi va tuzulishlari, predmetning shakliy ko‘rinishini bildiradi. Shakl

³⁶ Соди́кова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. –Тошкент: Ўқитувчи, 1991. -Б.50.

³⁷ Sodiqova. M. O‘zbek tilida rang-tus ifodalovchi so‘zlar. –Toshkent: 2010. –B.63.

ma'nosini ifodalovchi leksemalar "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan to'plangan belgi bildiruvchi so'zlarning 50 tasini qamrab olgan. Sifatning ma'no turidan ko'rinish ma'nosini bildiruvchi sifatlar qo'llanish doirasiga ko'ra shakl sifatlariga nisbatan kengdir. Ko'rinish sifatlari orasida inson predmet hodisalarining ko'rinishini ifodalovchi so'zlar soni uch yuz o'n oltitani tashkil etadi. Bular predmet ko'rinishini ifodalovchi (200ta); inson tashqi qiyofasini anglatuvchi sifatlar (116 ta)dir. Misollar tahlili ko'rinish sifatlari inson yoki predmetning umumiy ko'rinishini ifodalash bilan birga ularning ayrimlariga qo'shimcha emotsional-ekspressiv ma'no ham yuklashni ko'rsatdi. Tadqiqotni mazkur qismidan yumaloq, dumaloq, uzun, kalta kabi shakl -ko'rinish sifatlari tahlili o'rin olgan.

Yumaloq so'zi "shar shaklidagi", "dumaloq" shakl ma'nosini ifodalaydi. Yanoqlari bo'rtib chiqqan yumaloq yuzlariga balki qiziqish ifodasi jilva qiladi. (O.Y). Ushbu so'z "yumaloqlangan" ma'nosida qo'llanishi mumkin: Kampir taxtani surib o'rachadan yumaloqqina xo'rqaloqcha, xo'rqaloqchadan kichikroq bo'g'chadan mittigina tuguncha olib, uni tishi bilan yecha boshladi (O.Y). Doira, to'garak shaklidagi predmet ma'nosini ham anglashiladi. Xona kichik, bir chekkada karovot, yumaloq kichik stol, 2 ta stul, pasttag shifoner –uning yarmi kiyim -kechak, yarmi kitob javoni (O.Y).

Yumaloq so'zi nutqda salbiy emotsional-ekspressiv ottenkani aks ettirish imkoniga ega. Masalan, ushbu so'z juda semiz, baqaloq odam ma'nosini ifodalaydi: Oq xalatli yumaloq oshpazning oyoq-qo'li chaqqon (J.A). Yumaloq so'zi "xat" leksemasiga nisbatan ishlatilganda, "tuhmat qilib imzosiz yozilgan xat" leksemasiga nisbatan ma'no bildiradi: Agar sen shu kunlarda u hovliga Baxtigulni yetaklab kirib borsang, yumaloq hamda yozilgan ma'lumotlarni tegishli odamlarga isbotlab bergan bo'lasan (N.N).

Yumaloq so'zi poetik epitet sifatida she'riyatda emotsional-ekspressiv ma'noni kuchaytiruvchi vosita o'laroq keng qo'llaniladi. Bu masalaning konnotativ ma'no anglatish imkoniyati nihoyatda keng bo'lib, matnning ta'sirchanlik quvvatini oshiradi. Ayni so'z boshqa doimiy aniqlovchilardan o'zining

ekspressivligi, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi. Masalan, quyidagi misolda yumaloq so'zi kamaytiruvchi vosita bo'lib xizmat qilgan:

O'rtamizda birgina olma, olam ichra yumaloq ilinj (O.Matjon).

4. Hajm-olchov bildiruvchi sifatlar. Bu turdagi sifatlar predmetning hajmi, o'lchovi kabi ma'nolarni ifoda etadi. Hajm bildiruvchi sifatlar ko'p jihatdan holat va shakl bildiruvchi sifatlarga o'xshashdir. Bu tipdagi sifatlar "o'zbek tilining izohli lug'ati" dagi umumiy sifatlar bo'yicha to'plangan so'zlarning 100 tasini tashkil etadi. Hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlardan katta so'zi hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibida ko'p qo'llaniladigan va barchaga ma'nosi tushunarli faol so'zlar sirasiga kiradi. Katta so'zi "hajmi, o'lchami nisbatan ortiq, ulkan" ma'nosini anglatadi. Ushbu leksema ulug, zo'r, azim, azamat, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant so'zlari bilan sinonim bo'lib, hajm- o'lchovning odatdagidan ortiqligi ma'nosini bildiradi. Katta so'zi keng tushunchaga ega. U aniq, shuningdek, mavhum tushunchalarga nisbatan qo'llaniladi. Bu polisemantik so'zning nominative ma'nosi ulkanlik, ortiqlikni anglatishdan iborat: Ko'chaning narigi yuzidagi bir sermo'ylov odam katta qozonda baliq qovurardi(T.M).

Katta so'zi sitatistik bo'yoqqa boy so'zlardan bo'lib, xilma-xil emotsional –ekspressiv atenkalarni yuklashga xizmat qiladi. Masalan: "daraja kuchi yuqori, buyuk, zo'r" ma'nosida ishlatiladi: Ko'rinishidan polvonlar katta niyatlar bilan kelibdi (A.N). "Yosh jihatdan ulug', ortiq ma'nosini beradi: Katta kelin astagina o'rnidan turdi (S.A). Mazkur sifat "yuqori lavozimdagi" ma'nosida ishlatiladi: Shahar ma'muriyatinig katta rahbarlari tashrif buyirishdi (H.B).

Bu so'z qatnashgan "katta og'iz" iborasi tarkibidagi kuchli salbiy statistik ottenkani yuzaga chiqaradi, ya'ni "uncha –munchani pisand qilmaydigan, imkonidan ortig'ini gapirishga o'rgandan, maqtanchoq", ma'nosini bildiradi: Katta og'iz, hovliqma, takabbur, onasining erkasi quyilib, qizga ortiqcha g'urur bergan, harakatlarga o'zboshimchalik qiliqlariga noz karashma bag'ishlagan edi (O). "Katta tutmoq" iborasi gapga salbiy emotsional-ekspressiv

ma'no yuklaydi: U qoshni xotinlar oldida o'zini katta tutardi. Bu frazeologik birikma manmanlik, past nazar bilan qarash ma'nosini beradi. Katta so'zi yemoq fe'li bilan qo'llanilsa, "yaxshi hayot kechirmoq to'kin-sochinlikda yashamoq" ma'nosini bildiradi. Serdaromat otasining davrida katta yeb o'rgangan Fotima ancha ilgariroq bazm, to'y-tomoshaga mayl qo'yib sirtini silashga mukkasidan ketgan(M.). Ayni so'z "serdaromat" ma'nosidagi frazeologik ibora tarkibida qo'llaniladi. Topish-tutushi katta bo'lgan bozor pattachisiga turmushga chiqdi. (M.)

5. Rang-tus bildiruvchi sifatlar. Predmetning belgi alomatidan biri rang-tusdir. Bu turkum sifatlar predmetning ana shu belgisini ifodalash uchun ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida rang-tusni ifodalovchi so'zlar bir qator tadqiqotlarni o'rganish obyekti bo'lgan. Ammo rang-tus sifatlarini konnotativ ma'nolarini tahlili to'la yoritiladi. Oq leksemasida sof belgi ma'nosi mavhum bo'lib qor, sut, paxta ranglaridagi xususiyatini ifodalaydi: Mardon Yo'lchiyevichning egnida oq ko'ylak, qora galstuk sochlari esa hiyol to'zg'igan(J.A). Oq so'zi inson a'zolari ma'nosini ifodalaganda ijobiy baho semasini ifodalaydi: To'lgan oydek, g'uborsiz, oq yuzi biroz qizardi kimdandir uyalgan kabi(A.Q). Bu misolda ishtirok etgan oq leksemasi yuz rangi shu tusga moyilligini, tiniqligi, chiroyliligi belgisi anglatadi. Ushbu leksema "yozilmagan, toza" belgisi ma'nosida kelgan: Mayli, bo'lsin ilhom ham bekor, oq qog'ozim yig'lab-siqtasin(O.M).

Konnotatsiya frazeologik birliklarda nihoyatda kuchli bo'lib, ularda yana ham oydinroq ko'zga tashlanadi, chunki uslubiy naminatsiya frazeologik birliklarda kontekst va nutq stuatsiya orqali yuzaga chiqadi. Frazeologik iboralarda qatnashgan har bir leksik birlikning denotativ ma'no qirralari va ularning nutqiy vaziyatga qarab konnotativ ma'nosiga ishora qilish imkoni murakkablikni yuzaga keltiradi. Shuning uchun frazeologik birliklardagi konnotativ ma'noni belgilash so'zga nisbatan chuqur va murakkab tahlilni talab etadi. Xususan, oq leksemasi ham ibora tarkibida kelib yangi konnotativ ma'nolarni vujudga keltiradi. Masalan, oq sifatining soch va soqollarinig

oqargan qismi ma'nosini anglatishi kuzatiladi: Quloqlarigacha bosib tushgan sochlariga oq ham oralab qolgan edi (J.A). Oq sifati mag'iz so'zi bilan birgalikda subyekt tanasining rangi oq tusga moyilligi hamda tiniqligi, chiroyliligini ifodalaydi: Oxista, beozor qadam bosganicha xona o'ttiz-o'ttiz besh yoshlar chamasi, oq mag'izdan kelgan lo'ppigina ayol kirib keldi (S.A). Oq leksemasi sariq so'zi bilan juftlashib kelib, yuz rangining chiroyli yoqimli ekanligini bildiradi. Oq sariqdan kelgan chiroyli yuzi pardozdanmi yoki shamning nuridanmi qizarib ketdi(M.A). Oq sifatining ayrim salbiy munosabatini ifodalovchi turg'un birikmalar qatorida turgani bildiriladi. Oq bilak bo'lib qolibsizku, xonim. Bu o'rinda oq so'zi bilak so'zi ishtirokida "qo'lini sovuq suvga urmaydigan, o'ziga oro berib yuradigan ayol" ma'nosida kelib, salbiy ma'noni yuzaga keltiradi.

6. Ma'za - ta'mni bildiruvchi sifatlar. Bu turdagi sifatlar boshqa sifat turlariga nisbatan kam miqdorni tashkil etadi.

"Ma'za -ta'm" semasi sifat leksemalarda ham belgini atash ma'nosiga bilan birga nutqiy ifoda ma'nolarini mavjud. Bu ma'nolar matn bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi.

Ma'za-ta'm sifatlari turkumiga oid bo'lgan shirin so'zining lug'aviy ma'nosi shaker, bol, qiyom va shu kabilarning ma'nosiga xos ma'nosidir.Bochka bilan ammo qozilik qildi. Hamidaxonning bosvoldisi shirin(S.A). Shuningdek, bu leksema "ma'ni yoqimli, totli, ma'zali, lazzatli" ma'nosini ifodalaydi: Mening ikki onam bor, ikkisi ham mehribon, Biri menga sut berar. Ikkinchisi shirin non(U.). Xususan, shirin sifati diqqatni predmetning muayyan belgisiga tortish, belgini ta'kidlash kuchaytirishning semantik usuli sifatida nutqda xilma-xil konnotativ ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.Lekin, bu so'z gapdan nutqning elementlaridan ajralgan holda uslubiy bo'yoqqa ega bo'lmaydi. Quyidagi misolda shirin so'zi ko'chma nutqiy ma'no asosida konnotativlikni yuzaga keltirgan, bunga shirin so'zi "kishi g'urur qiladigan, lazzatlanadigan muomala –munosabat belgisi" ma'no ottenkasini beradi. Ko'chadan Odiljon odatdagi shirin mulozamat bilan kirib keldi(S.A). Shirin sifati totli ma'nosiga ega bo'lgan predmet sifati belgisini

ifodalash bilan birga “ahil, totuv, farovon” kabi konnotativ ma’nolarda ifoda etish mumkin. Bu kimningdir shirin hayoti, xayron, mag’lub bu koinot(O.M). Quyidagi leksemalarda shirin semasi oksimoron san’atni yuzaga keltirgan: Meni shirin og’u lazzati qiynar(A.O). She’riyatda shirin so’zi ko’proq mavhum ma’noli so’zlar belgisini ifodalovchi ijobiy emotsional ottenkani yukladi: Shukur aka bunday shirin ertaklarga ehtiroz bildirardi (H.H). Ayni holda tadqiq etilayotgan leksema “xush yoqadigan”, ”lazzat baxsh etadigan” belgi ma’nosini anglatadi: Shirin hayotingni bexosdan buzdimi(S.A.).

7. Hid bildiruvchi sifatlar. Bu turdagi sifatlar o’zbek tilining lug’at boyligida nihoyatda kam miqdorni taqdim etadi. Sifatlarining ma’no turlari bo’yicha to’plangan misollar tahlil natijasida bu so’z turdagi sifatlarining miqdori 14ta jami bo’ldi. Tadqiqotning bu qismida xushbo’y, sassiq, badbo’y, muattar kabi so’zlarning semantik uslubiy tahlili beriladi. Sassiq so’zi “hidi yomon“, ”yoqimsiz“, ”qo’lansa“ ma’nosini anglatadi. Bu so’z sassiq, badbo’y, qo’lansa so’zlari bilan sinonimik munosabatiga kirishadi va xushbo’y so’zining antonimi hisoblanadi: Shodi garang sigirlarning yarasiga suriladigan qop-qora sassiq dorini undan olmadi (H.H.). Ayni so’z subyektning salbiy munosabatini ifodalashda keng qo’llaniladi. Masalan, aynib, hidlanib, achib –biqsib, ketgan joy, predmet, narsalarning belgisini bildiradi: Balki shu lahzadan so’ng, axlat so’rib, yung bosib, ko’lmaklar sassig’i aro paydo bo’lib shayton degan zot (A.Q). ”Insonning ko’ngliga botadigan ,yoqimsiz” ifodali konnotativ ma’no ham sassiq so’zi orqali anglashiladi: Sassiq so’zini eshitmayin deboq, bormay qo’ydim (S.A).Sassiq leksemasi shaxsning belgisini bildirib kelganda, odatda, so’zlovchining modal munosabatini anglatadi: O’ sassiq chol, saloming boshingda qolsin(O.Y).

Sassiq so’zi kontekstda “yomon”, ”yoqimsiz” sifatlariga xos xususiyat ma’nosini tashish mumkin: Sassiq bo’lsa ham burun o’zimizniki (X.S). Bu misolda sassiq leksemasi orqali gap-so’z, xatti-harakatlari yoqimsiz , so’zlovchinig jini suymaydigan belgi ma’nosini ifodalagan. Sassiq so’zi spetsifik ma’nosini bildirishi mumkin: Ayvon oldida sassiq alafdan qilingan uzun sopli supurgi yotardi(S.Z).

Sassiq so'zi nazmda epitet sifatida predmetning belgisini salbiy ottenkada ko'rsatishi uchun keng qo'llaniladi. Bu tipdagi epitetlar lirik epitetlarga ,ya'ni muallifning tasvirlanayotgan predmetga to'g'ridan-to'g'ri munosabatini anglatadigan sifatlashlar sirasiga kiradi. Uchratganim ko'ngilmi yoki sassiq alaf (H.).

8. O'rin – paytga munosabat bildiruvchi sifatlar. Bu turdagi sifatlar tilshunos olimlar farqli talqin etilgan. Z. Ma'rufov o'rin –payt sifatleri predmetdagi belgini uning boshqa predmetga turlicha munosabatiga ko'ra bildiradi deb xulosalaydi. A.H. Kononov o'ringa munosabat bildiruvchi va paytga munosabat bildiruvchi leksemalarni ikki alohida sifat turlari sifatida o'rganadi. S.Maqsudovning fikriga qaraganda, o'rin va payt munosabatini bildiruvchi sifatlar predmetning joylashishi va hosil qilish vaqtiga munosabat bildirib, ot turkumidagi so'zlardan – gi, - dagi yasovchilari vositasida xosil qilinadi. Paytga munosabat bildiruvchi sifat -gi affiksi yordamida vaqt ma'nosini ifodalovchi so'zlardan yasaladi. A. Kononov, Z. Ma'rufov, M. Sodiqova, J. Muxtorov kabi tilshunoslar bu affiksni sifat yasovchi qo'shimcha deb e'tirof etadilar. A. Hojiyev esa bu olimlar fikriga qarshi chiqib, bu element so'z yasash funksiyasi yo'qotganligini qayd etadi. Tadqiqotda M.Sodiqovning tasniflariga asoslanganligiga bois bu o'ringa ham mazkur olimaning fikrlariga tayanish ma'lumdir.

2.2. Harakat belgisini bildiruvchi so'zlarning lisoniy xususiyatlari

Harakat belgisini bildiruvchi so'zlar ravish turkumi ostida birlashadi. Ravish hamisha tilshunoslikning muammoli masalasidan bo'lib kelgan. Uni o'rgangan olim V.V.Vinogradov «mustaqil so'zning hech bir guruhiga sig'may qolgan so'z ravish turkumiga yig'ilgan» deb haqqoniy baho bergan edi. Uning ma'no va vazifasi ot, sifat, son, olmoshga yaqin turishi arab va Yevropa tilshunosligida qayd etilgan. SHarq va g'arb tilshunosligi ravishni ma'no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa birortasiga xos bo'lmagan belgi – o'zgarmaslik belgisi bilan ismdan farqlaydi. Biroq o'zbek tili grammatik qurilishining tavsifiga bag'ishlab yozilgan ko'plab ilmiy adabiyot va darslikda ravishning o'zgarmaslik tabiati inobatga olinmagan. Tilshunoslar o'zbekcha ravishni rus tilidagi «narechie»ning muqobili

sifatida talqin qilishgan, natijada *kecha, kunduz, tong, oqshom* kabi payt oti, *atrof, o'rta, u yerda, bu yerda, old, orqa* kabi o'rin oti, *oz, mo'l, butun, to'la* kabi miqdor sifati, *keyin, past, baland, yuqori* kabi o'rin sifati ravish turkumi doirasida o'rganilgan.

«Asosan harakatning, qisman predmetning belgi, miqdor yoki holatini bildiruvchi o'zgarmas so'z» – ravishning so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik ma'nosi.

Ravish – mustaqil ma'noli o'zgarmas so'z. U belgi, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nodini ifodalaydi va bu jihatidan ot, sifat, songa yaqin turadi. Ulardan farqli jihati shundaki, so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimcha bilan birika olmaydi. Masalan, ot ko'plik, sifat daraja shaklini qabul qiladi. Masalan, *tongda, oqshomda, kunduzlari, ko'proq, ozroq, balandroq* kabi. Ayrim til birligida uchraydigan egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi shakli ravishning o'zak qismida soddalashgan, ya'ni o'zak bilan yaxlit holga kelib qolgan: *birdan, zimdan, to'satdan, kechasi, birga*. Bundan tashqari qadimgi davrda keng iste'molda bo'lgan *-ra* (jo'nalish kelishigi) *so'ngra, uzra, -a, qayta, ko'tara, -in(-un) birin-ketin, ostin-ustun* qo'shimchasi ham ravish tarkibida qotib qolgan.

Ravish turkumini talqin qilishda o'zgarmaslik xususiyatini e'tiborga olish uning so'z turkumi sifatidagi xususiyatini belgilashda qator qarama-qarshilikka nuqta qo'yadi.

Ilmiy manba, darslik va qo'llanmalarda *eng, juda, nihoyat, g'oyat, lang, g'irt* kabi so'z kuchaytiruv ravishi deb qaraladi. Holbuki, bu shakllar ravish oldidan kelib belgi ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. SHuning uchun keyingi yillarda ayrim tadqiqotchilar bu unsurlarning ravish emasligini, chunki ravish kabi mustaqil lug'aviy ma'nodan xoliligini ta'kidlashib, kuchaytiruv yuklamasi sirasida o'rganish lozimligini uqtiradi.

Ravish holat, miqdor-daraja, o'rin, payt, maqsad, sabab leksik-semantik guruhlariga bo'linadi.

Payt ravishi. Payt ravishi harakatning vaqti, payti, muddatini bildiradi: *endi, saharlab, hali, doim, indin* kabi. U gapda ko'pincha hol, ba'zan kesim bo'lib

keladi: **Bugun erta** turib tongni ko'rdim. (Uyg'.) *Bugunning hakami ertadir.* (A.Xud.)

O'rin ravishi. O'rin ravishi harakatning yuz berish o'rnini bildiradi: *olg'a, ilgariga, oldinga.*

O'rin ravishini o'rin otidan farqlamoq kerak. Bunga o'rin otlarining morfologik o'zgarishi asos qilib olinadi: *atrofimiz, o'rtada, o'rtadan, ichkarida, o'ngdan, chapda, oldida, u yerdan* kabi.

Holat ravishi. Holat ravishi harakatning bajarilish usuli, tarzini bildiradi. Shu boisdan ular tarz-tus ravishi deb ham yuritiladi: *bexosdan, astoydil, majburan, qavatma-qavat, mardlarcha, yigitlarcha.*

Miqdor-daraja ravishi. Miqdor-daraja ravishi miqdoriy sifat va darajani ifodalaydi: *ko'plab, sal, qarich-qarich, arang, xiyol, yana* kabi. Miqdor-daraja ravishi songa yaqinlashadi. Biroq son bilan «noaniq miqdor» belgisi ostidagi noto'liq ziddiyatda belgili a'zo sifatida yuzaga chiqadi.

Maqsad ravishi. Fe'ldan anglashilgan harakatning maqsadini ifodalaydi: *atay, atayin, ataylab, azza-bazza, jo'rttaga, qasddan.*

Sabab ravishi fe'ldan anglashilgan harakatning sababini ifodalaydi: *noiloj, noilojlikdan, bekordan-bekorga, chor-nochor.*

Boshqa turkumda bo'lgani kabi ravishning ham ko'p ma'noliligi ularni leksik-semantik guruhga ajratishda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, *nari-beri* ravishi o'rinni ham (*Stollarni nari-beri surdik*), holatni ham (*U nari-beri nonushta qildi*) ifodalaydi.

Tilshunosligimizda ravish yasalishi munozarali. Chunki ravishning asosiy qismi – asli boshqa turkumga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksema. SHu boisdan aksariyat tilshunoslar ravish yasalishini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum so'zining ravishga o'tishi) mavjudligini tan olishadi.

Yuqorida sanab o'tilgan ravishlar tarkibiga diqqat qilinsa, ularda turli so'z yasash qolipi mavjudligi ma'lum bo'ladi: *arabcha ot+an, ot+chasiga, ot+ona, ot+larcha, ot+lab* kabi.

Qo'shma ravish esa *olmosh+ot* (*har gal, har zamon*), *ravish+ot* (*hali zamon, hali beri*), *son+ot* (*bir yo'la, bir dam*) qolipi mahsuli.

Boshqa turkumdagi takroriy so'z ravish bo'lishi mumkin: *yuzma-yuz, quruqdan-quruq* kabi.

Tilshunoslar ravish turkumining yasalish sistemasiga ega emasligini *-an, -ona* qo'shimchacining arabcha va tojikcha so'z tarkibida uchrashini, *-larcha, -chasiga, -lab* kabining grammatik ma'no ifodalashi bilan va *-iga/-siga, -chasiga* kabi so'zning sanoqli darajada ekanligi bilan izohlaydi.

Ravish gapda ko'pincha fe'lga bog'lanib hol, otga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi. Bu ravish – umumiy grammatik ma'nosining tarkibiy qismi.

III BOB.HOLAT BILDIRUVCHI SIFATLAR SEMANTIKASI

3.1. Tabiiy holat belgisini bildiruvchi sifatlar tasnifi

Yuqoridan ko'rib o'tganimizdek sifatlar semantik ma'nosi jihatidan 9 turga bo'linadi. Bularidan biri holat bildiruvchi sifatdir.

Holat ma'nolari turlicha, masalan: tabiat olamidagi har turli holatlar, hayvonot, qushlar olamidagi va inson jismi, ruhiyatining munosabatlariga oid holatlardir. Bularning ko'pi sifat formalari vositasida ifodalaniladi. Bularidan inson tabiatiga xos bo'lgan jismoniy ekspressiv ruhiy holatlar o'ziga xos xarakterga ega, ya'ni ichki holat(psihologik ekspressiv emotsional, modal ruhimy kechinmalar) tashqi holat (sog'lomlik, betoblik, kuchlilik, zaiflik kabi) ijtimoiy holat(boylik, kambag'allik) va hakazo.

O'zbek tilidagi holat ifodalovchi sifatlarning komponent e'tiboriga ko'ra tahlil qilishda bu semantik maydonning quyidagi semantik guruppalarga ajralishini ko'rdik:

1. Tabiiy holat belgilari

a) ijobiy ma'noda: go'zal, ko'xlik, chiroyli, suluv, lativ, qomatdor.

O'zi ham Ismoiljon suxsurdek yigit edi. (S.Ahmad).

b) Nuqsoniy belgilar: cho'loq, mayib, bukir, cho'tir, soqov, xunuk, kar, qiyshiq. Masalan: Taqsir, bugun sahar Qo'qondan keldik, -javob berdi kattagina, novchadan kelgan, **cho'tir** kishi. (Oybek).

Qayd etilgan sifatlardan ba'zilar hayvon va predmetlarning belgisi uchun ham qo'llanilishi mumkin: Uo'sha mayib turna cholning shifo topib, yana o'z karvoniga qo'shilganini bilarmikin? (S.Ahmad).

2. **Jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi sifatlar:** bardam, baquvvat, tetik, keksa, qari, ojiz, nimjon, zaif, kuchli. Bunday sifatlarni predmet belgilarini ifodalash uchun ham qo'llash mumkin: Oqsoqol hovliga, keksa tut shohlari engashib turgan tunuka tomga suqlanib birma –bir qarab chiqdi. (S.Ahmad).

3. **Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar:** hursand, hafa, sergak, behush, hushyor, darg'azab, tajang, kibor mayus, g'amgin, alamzada. U... xursand kishi bilan chaqchaqlashib, hafa kishi bilan dardlashar edi. (A.Qahhor).

4. **Kishining hayotiy holatini ifodalovchi kishilar:** boy, badavlat, kambag'al, qashshoq, yo'qsil, gado, yetim, mushfiq, bechora, musofir. Boy ota qashshoq xizmatkorining farishtaday suluv yoshgina qiziga uylanib olgan edi. (Oybek).
5. **Predmetning harorat belgisini ifodalovchi sifatlar:** issiq, sovuq, iliq, salqin. Iliq bahor yomg'iri quymoqda edi. (A.Muxtor).
6. **Tozalik, ifloslik holatlarini ifodalovchi sifatlar:** toza, ozoda, sof, musaffo, kir, isqirt. U kir, yamoq guppi cho'ponga o'ralgan yalang oyoqlarida yirtiq kalish, boshida isqirt do'ppi. (Oybek).
7. **Predmetning eskilik, yangilik holatlarini ifodalovchi sifatlar:** yangi, eski, churiq, uvada, juldir kabi. Hozir nima ko'p, eski matoga haridor ko'p. (S.Ahmad).
8. **Predmetning pishgan va homlik holatlarini ifodalovchi sifatlar:** hom, g'o'r, dumbul, pishgan, pishiq va boshqalar. Dumbul olcha va gilolar ichimni ko'p sidirgan. (Oybek).
9. **Predmetning ho'l- quruqlik holatlarini ifodalovchi sifatlar:** ho'l, nam, namkum, namjob, quruq, kok.
10. **Tinch va notinch holatlarini ifodalovchi sifatlar:** tinch, jim, jim –jit, sokin, osuda, osoishta, notinch, betinch va hakazo... *Hovlining bir yoqasidan o'tgan anhor bo'yi quyiqlik tolzor sersoya, jim –jit bir go'sha* (Oybek).

Bulardan tashqari silliq, g'adir –budir, g'ijim, tekis, siyrak, zich, qalin, yupqa, omonat, puxta, g'uch, shovul, tanho, gavjum, ochiq berk kabi bir qancha sifatlar borki, ular ham turli holatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagi ko'rsatilgan bildiruvchi sifatning diyarli barchasi darajalanadi, forma o'zgaruvchi affikslarni, ya'ni modal forma yasovchilarni qabul qiladi va ko'pchiligi ko'chgan ma'nolarda qo'llaniladi.

Anglashimizcha, o'zbek tilidagi holat bildiruvchi sifatlar obyektiv asosiga ko'ra tabiat va jamiyatdagi o'simliklar va hayvonat olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi bilan bog'liq muayan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Demak, holat ifodalovchi sifatlar moddiy asosiga (obyektiga) ko'ra kengligi, murakkabligi materiaga xos turlicha holatlarni o'ziga «joylashtirishi» boshqa semantik maydonga kiruvchi sifat leksemalaridan ajralib turadi.

Holat ifodalovchi sifatlar ma'nosida reallashuvchi holat muayan logik subyekt doirasidagina sodir bo'lishi, undan tashqariga chiqmasligi, unda qolishi bilan xarakterlanadi. Holat sifatlari holatni ifodalaydi, kimdir (nimadir) muayyan holatda bo'ladi.

Obyektiv borliqdagi narsa, predmetlarga, shaxsga, hayvonga xos turlicha holatlarni ifodalovchi va murakkab semantik strukturasi bilan ajralib turadi.

3.2. Jismoniy yoki fizik holatlarini ifodalovchi sifatlar semantikasi

Jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi sifatlar ham turli ma'no nozikliklari bilan farqlanadi. Masalan:

1. *Ular dushmanlar bilan kurashda o'zlarini bardam jangchilar ekanliklarini ko'rsatdilar.*
2. *Ota zalvorli tayog'ini qorga niqtab bosib, bardam qadam tashladi.*

Keltirilgan birinchi misolda bardam so'zi jangchilarning kuch-quvvatiga to'la, sog'lom, tetik ekanliklariga ishora qilsa, ikkinchi misolda bardam so'zi qadamning holatini bildirib, subyektning kuch-quvvatidan, g'ayratidan, tetikligidan darak beradi. **Baquvvat** so'zi ham kontekstda turli ma'no nozikliklarini ko'rsata oladi.

1. *Nozik va ingichka Elmurod baquvvat va yo'g'on Meli polvonning belbog'iga qo'lini chirmashtirib oldi. (P.Tursun).*
2. *Kitelining ko'krak cho'nchagidan tarog'ini olib, Qunduzoy baquvvat sochini taradi. (S.Aorboyev).*
3. *G'o'zaning xosildor shoxlari baquvvat, yetuk edi (Oybek).*
4. *Baquvvat mator guvullab o't oldi.*
5. *Tangriqul hoji baquvvat xo'jalik edi. G'ulom aka yel kelsa yiqiladigan, bequvvat xo'jalik edi. (A.Qahhor).*

Birinchi gapda baquvvat so'zi subyektining zo'r jismoniy kuchga ega bo'lgan, jismoniy jihatdan yetuk, sog'lom va kuchli ekanligini, ikkinchi gapda sochining puxtu, pishiq, mustahkam ekanligini, uchinchi gapda g'o'za shoxlarining yaxshi o'sganligini, barivomiligini: to'rtinchi gapda katta harakatlantiruvchi kuchga ega bo'lgan, quvvati, kuchi ko'p, quvvatli ma'nolari o'rnida qo'llanilgan.

Beshinchi gapda baquvvat va bequvvat so'zlari ko'chma ma'noda bo'lib baquvvat ushbu o'rinda katta boylikka ega bo'lgan, badavlat, davlatli, davlatmand kabi semalarga bequvvat so'ziga antonim holatda muxtojlikda yashovchi, tirikchilik uchun yetarli narsasi bo'lmagan, kambag'al semalariga ishora qilmoqda.

Quyosh endi tig' yeya boshlagan salqin sabohda Qorabuloq qishlog'idan biri kekxa, biri yosh ikki otliq chiqib kelaverdi. (M.Ismoilij).

Ushbu gapdagi **kekxa**, **yosh** so'zlari inson hayotidagi bosqich, davr, umr nomlari bilan bog'liq holda qo'llanilgan. Kekxa so'zi ko'p yil yashagan, organizmning faoliyati zaiflashishi davriga o'tgan, yoshning aksi ma'nosini bildiradi. Yosh so'zi esa qari emas, navqiron ma'nolarini ifodalayapdi.

Jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi sifatlarni predmet belgilarini ifodalash uchun ham qo'llash mumkin. Masalan:

1. *Ey buloqlar eski qadrdon o'ynoqi umrimday jo'shib oqdingiz (G'ayratij)*
2. *Oqsoqol xovliga, kekxa tut shoxlari engashib turgan tunika tomga suqlanib, birma-bir qarab chiqdi (S.Ahmad)*

Kekxa so'zi birligi va ikkinchi gapda ham uzoq yillardan beri mavjud, ko'p yillarni ko'rgan, qadimiy, eski semalariga ishora qilmoqda. Jismoniy yoki fizik holatni ifodalovchi ojiz so'zi ham turli ma'no nozikliklariga ega. Masalan:

1. *Kasalmand, ojiz bir mahbusni arqonga bog'lab Solijon bilan Bekjonboy tortib oldilar (J.Sharipov)*
2. *U (Qumri) yarani bog'layotganda Botirali ojiz tovush bilan ingradi-yu yana jimib qoldi.*
3. *Nayda chalingan ojiz navo esa bir cho'pon boladay chinqirib nola qilar edi.*
4. *Fonarning xira nishonidan atrofga ojizgiga qizg'ish shula yog'ildi (H.G'ulom)*
5. *Mayna Abduvahobning yoshlangan ojiz chap ko'ziga, muloyim tikilib turgan o'ng ko'ziga nazar tashladi.*

Keltirilgan birinchi misolda ojiz so'zi subyektning jismoniy jixatdan kuchsiz, zaif, bequvvat, notovon ekanligiga ishora qilsa, ikkinchi va uchinchi misollarda tovushning bo'sh, kuchsiz, past ekanligini ifodalaydi. To'rtinchi gapda

xira, nursiz kabi ma'nolar anglatilsa, beshinchi gapda subyektning ko'rish qobiliyatini qisman yoki batamom yo'qotgan, ko'r ekanligiga ishora qilmoqda.

Yuqorida keltirilgan misollardagi holat ifodaloovchi sifatlardan shuni angladikki bu turdagi sifatlarning ham ham jon, va jonsiz mavjudotlarning jismoniy yoki fizik holatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

3.3. Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlarning semantikasi

Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlarning insonda yuz beradigan yoqimli va yoqimsiz tuyg'ularni, tinchlik, farog'at hayajonning va ma'nolanishi, dadillik va taraddudlanish, quvonish va g'azablanish, qo'rquv va shodlik kabi ijobiy va salbiy emotsional holatlarni ifoda etish bilan boshqa leksik semantik guruhdagi holat sifatlari ajralib turaladi.

Bunday ruhiy holatni ifodalovchi sifatlarning insonning ichki dunyosi uning ruhiy hayotini aks ettiradi. Taqiqotlar natijasida 148 ta ruhiy holatni ifodalovchi sifatlarning va 50 dan ortiq frazeologik birliklar aniqlangan.

Dastlab holatni ifodalovchi sifatlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi baho bildiradigan sifatlarning, ikkinchisi baho bildirmaydigan sifatlarning. Baho bildiradigan sifatlarni esa yana ikkiga bo'lish mumkin.

1. Ijobiy ruhiy holatni ifodalovchi sifatlarning: **Xursand, xushyor, xayoli, iboli, ifatli, didli, oriyatli.**

2. Salbiy ruhiy holatni ifodalovchi sifatlarning: **Xafa, tajang, mayus, g'amgin, alamzada, g'azabnok, darg'azab, xayosiz, iffatsiz, beor, befaxm, beraxm, beg'am.**

Shuni anglaymizki, xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlarning holat ma'nosi kasb etishi mumkin. Ya'ni xarakter-xususiyat bildiruvchi so'z holat ma'nosini ifodalovchi sifatlarning chegarasini kesib o'tishi mumkin. Masalan: **Badjahl, muloyim, yoqimtoy, ziyrak, mehnakash, yaxshi, yomon** so'zlari ruhiy holatni ham ifodalaydi. Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlarning agents, aktant-inson bo'ladi. Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlarning shaxs tushunchasi bilan uzviy bog'liq chunki shaxs ushbu holatlarga ega bo'ladi. Demak, ruhiy holatni ifodalovchi sifatlarning ayni inson bo'ladi.

Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar subyektning tashqi ichki ruhiy holati bilan bog'liq ma'nolarni bildiradi. Masalan: ularni ust boshi batamom ividi shunday bir kulgili holda guzarga kirib bormaslik uchun qishloq chetidagi eski bir egasiz uyning ayvonida yomg'irning to'xtashini kutdilar. (P.Tursun "O'qituvchi").

Berilgan misoldagi kulgili subyektning ob'ekti borliqdagi vaziyat bilan bog'liq holdagi axvoli, holati, haqidagi belgilar majmuasini masxarali ust-bosh afti angoridan sarishtalik yo'q kabi belgilarni ifodalaydi.

Yigit shifga qarab yotganicha shirin orzularga mast bo'ldi (I.Rahim).

Ushbu misoldagi **mast** so'zi subyektning ijobiy ruhiy holati haqidagi axborotni bermoqda biroq, mast so'zi kontekstda salbiy ma'noni ham anglatadi. Masalan: Tantaboyvachcha anchagina mast bo'lib og'ziga kelganini valdirashga boshladi. (oybek Qutlug' qon) Bu gapda mast so'zi subyektning obyektiv olamdagi holati, o'zini tuta bilmaslik, fikrlashi sust, befarq semalariga ishora qiladi. Ya'ni ichkilik yoki nama, qora diri va shu kabilar ta'sirida kayf qilgan, kafi bor ma'nosida qo'llanilgan.

Subyektning emotsional holatiga ko'ra belgi baxosini ifodalovchi leksik-semantik o'z tarkibiga xursand, shod va xurram sifatlarini birlashtiradi. Emotsionallik semasi umumiy sesema hisoblanadi. Emotsionallik subyektining holati bilan bog'liq bo'ladi va gapda ko'pgina hol vazifasini bajaradi. Ayrim hollarda moslashgan aniqlovchi vazifasida keladi. Bolakay xursand chopqillab ketdi. Ushbu misolda xursand subyektning ichki ruhiy holati kayfiyatiga bog'liq "mamnun", "minnatdor", "yaxshilikdan rozi" semalarini birlashtirib, gapning mazmuniy maydonini hosil qilmoqda. Xursand "belgi darajasi" smeasining "normal va stelistik" "Bo'yoqdorlik" semasi bilan xarakterlanadi. Ko'pincha gapda aniqlovchi vazifasida kelib, boshqa so'zlar bilan komplektiv munosabatda bo'ladi.

Keng dalani mehnatida xursand yigit-qizlarning kuy qo'shiqlari qoplab olgan. Shod so'zi ham o'z vazifasiga ko'ra xursand so'ziga yaqin turadi va belgi darajasining ko'pligi semasi bilan farqlanadi. Shod, xursand so'zidan boshqa so'zlar bilan komplektiv munosabatga kirishib, yakka holda aniqlovchi vazifasida juda kam hollarda uchraydi. Ko'p hollarda hol yoki ot kesim vazifasini bajaradi.

Otasini ko'rganidan shod bola uning bo'yniga osildi. Atributiv so'z birikmalarida ko'p hollarda shod so'zining sinonimi xurram so'zi bilan birikib, ma'lum darajada ko'chma, emottsional, eksperisiv ma'no ottenkalarini bildirishi mumkin. Xushyor, sezgir, ziyrak kabi ruhiy holat bildiruvchi sifatlar subyekt yoki predmetning ta'sirini qabul qila olish darajasining sekin yoki tez amalga oshirishni ifodalaydi. Bu leksik semantik guruhdagi hushyor va ziyrak so'zlari faqat jonli predmetlarni nomi bilan birika oladi.

Jumladan, inson tana a'zolari nomlari, shuningdek, o'lchov asboblari nomi bilan birikib tashqi ta'sirga munosabatini ifodalaydi. Subyektiv nomlari bilan birikkanida bu leksik semantik guruhdagi so'zlar turli ma'no ottenkalarini bildirib, quyidagicha xarakterlanishi mumkin. Hushyor, sezgir, ziyrak ruhiy holatlarining xarakterlanishini ko'rib o'tamiz: Hushyor subyektning tashqi ta'sirini qabul qilishdagi har tomonlama doimiy holda tayyor ekanligini ifodalab keladi.

Gulsumbibining tovushi Gulnorni bir qadar hushyor qildi. (Oybek).

Ziyrak leksemasi belgi darajasining ko'pligini faqat tashqi ta'sirni qabul qilishga tayyor ekanligini emas, balki tasvirni hech qanday signallarsiz qabul qila olish va g'amxo'rlik, mehribonlik kabi ma'no ottenkalarini ham bildirishi mumkin: Keksalik toshi, g'am yuki ostida qaddi bukchaygan bu ziyrak chol ayollarning ahvol-ruhiyatini sezdi, angladi (H.G'ulom). Sezgi subyektning tashqi ta'sirini eng kichik o'zgarishga ham tez reaksiya bilan qarashni ifodalaydi: Ahmad Husayn voqeani yashirishni istamadi, baribir uning sezgir dadasi mana hozir kelib butun sirni ochishga uni majbur etadi (Oybek).

Yuqorida ta'kidlaganimizdek **sezgir** so'zi barcha turdagi predmetlarni tashqi ta'siriga munosabatini ifodalaydi: **Sezgir** barometr. Tuyg'un-faqat insonga nisbatan qo'llanadi va unda aqlli, faxmli, ottenkasi bor. Abdusalom degan bitta o'g'il ukang bor edi, yum-yumaloq, o'ta pishiq, tuyg'ungina bola edi. (Oybek).

Ruhiy holat ifodalovchi sifatlar yana shunday holatni ifodalaydiki, unda inson organizimida kechadigan ba'zi bir o'zgarishlar ifodalanadi. Bunday sifatlarga jinni, telba, devona so'zlarini misol qilishimiz mumkin bu so'zlar aqldan ozgan ma'nosi bilan birlashadi.

Fojianing uchinchi kunlarida Zaynabning **jinni** bo'lib ochiq kuyi ko'chada yurgan xabari eshtildi (A.Qodiriy). **Telba** so'zida belgi darajasi bir oz yumshaydi va unda ijobiy munosabat ifodalanadi. U betlari yumdalangan, oppoq sochlari yulingan, bu **telba** xotinni 40 yillik umr yo'ldoshiga o'xshata olmadi (M.Ismoiliy).

Devona so'zi **esi past, telba, savdoyi** ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: Qori birdan ikkala qo'li bilan urdiyu ho'ngrab o'zini o'rmonjonning oyog'iga tashladi. O'rmonjon darhol uni ushlab ko'tardi- Qori aka, devona bo'ldingizmi? u nimasi (A.Qahhor).

Yuqorida ko'rib o'tilgan misollarni tahlil qilingan holda quyidagi xulosaga keldik. Obyektiv borliqdagi barcha insonlar bir-birlari bilan doimo uzviy aloqada bo'ladi. Bu aloqa esa o'z-o'zidan o'zaro munosabat orqali yuzaga keladi. Ularning bir-birlari bilan munosabati ijobiy yoki salbiy ko'rinishda bo'ladi. Bu munosabatlar qaysi ko'rinishda bo'lsa inosnlar ruhiyatiga xuddi shunday ta'sir ko'rsatadi.

Ruhiy ifodalovchi sifatlar inson ruhiy faoliyatini, psixik holatini ifodalaydi. Ushbu sifatlar insonda ro'y bergan yoqimli va yoqimsiz tuyg'ularni ijobiy va salbiy xlatlarni ifoda etish bilan boshqa leksik semantik guruh holat sifatlaridan ajarlib turadi.

3.4. Ijtimoiy holatini ifodalovchi sifatlar

Tilimizda faol qo'llanuvchi **bechora, boyaqish, ojiz, notavon, sho'rlik, aftoda** kabi sifat leksemalar kishining nochor ahvolda qolganligi, unga nisbatan achinish uyg'otish holatlarini ifodalashga vosita bo'ladi: *Oqsoqol aftodahol, yetmas o'ylab o'yiga / Ko'ngli vayron, qaddi dol, qarab bo'lmas ro'yiga....* (T. Sulaymon). *Tobakay bechora olam ko'kida / Qontalash balqadi oylar, oftoblar!...* (G'afur G'ulom).

Keltirilgan misollarda kishining achinarli holati *aftodahol, bechora* singari sifat leksemalar orqali ifodalangan bo'lib, bunday holat *sho'rlik* yanada kuchliroq tarzda o'z ifodasini topgan: *Arzimas*

narsadan chiqarib g'avg'o, / Sho'rlik o'zbek xalqin "kelajaklari"...
(Azim Suyun).

SHuni ham inobatga olish lozimki, *sho'rlik* sifat leksemasi kishining hayotiy ahvolini ifodalashi nuqtayi – nazaridan *bechora*, *boyaqish*, *o'ksiz*, *notavon*, *ojiz*, *aftoda* kabi so'zlar bilan ma'nodosh sanaladi, bu holat sinonimlar lug'atida ham o'z aksini topgan.³⁸ Lekin *sho'rlik* leksemasida belgi darajasi ancha kuchli. Quyidagi misolda *sho'rlik* sifat leksemasining ma'no ko'lami yuqoridagilarga nisbatan ma'lum darajada torayganligini, belgi semasining yanada konkretlashgani seziladi: *Holdan ketib sho'rlik qiz tuni / Yarim karaxt mudrar, yarim och / Usti – boshi yirtiq – yalang'och / Kun kechirar, ishlar tinmayin* (Hamid Olimjon).

Bu o'rinda *sho'rlik* sifat leksemasining yakka shaxsga nisbatan qo'llanilishi unda belgi ma'nosining yanada kuchayishini ta'minlagan. Badiiy nutqda, ayniqsa, poetik matnlarda ba'zan *sho'rlik* leksemasi yuqorida qayd etilgan semalardan tashqari omadsizlik, baxtsizlik, tolei pastlik kabi semalarni ham bildirishga xizmat qiladi: *Bosgan uyni solgan bu sho'rlik usta / Qah – qah urib shu kun ayrildi hushdan* (SHukrullo).

Tilimizda *faqir* so'zi ham kishining hayotiy holatini ko'rsatuvchi sifat leksemalardan biri sanaladi, u moddiy jihatdan nochor, kambag'al ma'nolarini ifodalaydi: *Hamma har tarafga yelibdi shu on / Olib kelishibdi: bir odam, faqir / Faqir, bechorahol, ozg'in va nimjon...* (Muhammad Ali).

Ko'rinadiki, bu o'rinda kishining hayotiy ahvoli, holati uning o'zini tutishi, tashqi ko'rinishi, kiyinishini tasvirlash orqali ochib beriladi. Poetik nutqda bu kabi holatlarni ifodalashda *xor*, *xor – zor*, *yupun*, *darbadar*, *yarimjon*, *och – yalang'och*, *gado*, *yetim* kabi sifat

³⁸Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. 60 – 61 – betlar.

leksemalari keng qo'llanadi. *Bunda ekan qancha xor – zor / Mendek yupun, darbadar* (Erkin Vohidov).

Keltirilgan misolda *xor – zor, yupun, darbadar* so'zlari yordamida kishining hayotda juda kam xo'rlanishi, usti – boshi juda ham xarobligi, muhtojlik tufayli elma – el, eshikma – eshik yurib kambag'allikda kun kechirishi ifodalab berilgan. Kishining og'ir ahvolda yashashi, ota – onasidan ajrab qolib qiynalib hayot kechirishi unga nisbatan *yetim* sifat leksemasini qo'llash orqali ochib beriladi: - *Tur, dedilar, tur, yetimchazot! / Ilojim yo'q, turaman birpas.* (Usmon Nosir).

Poetik nutqda kishi hayotining o'taketgan darajada og'irligi, uning o'ta kambag'alligi *yo'qsil, qashshoq* sifat leksemalarini qo'llash orqali ham ifodalanadi: *Kelma, kelma... men faqir... bechora... yo'qsil bir kishi; Men kabi yo'qsil kishining yog'dularda ne ishi?..* (CHo'lpon).

Poetik nutqda holat bildiruvchi bu kabi sifat leksemalar tilimizda eng faol sifat leksemalardan hisoblanadi. Ularning badiiymatndagi tadqiqi ham ayni shu jihatdan tilshunoslik nuqtayi – nazaridan g'oyat ahamiyatlidir. Quyida biz mashhur o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridan olingan kichik bir parchani sifat leksemalarining uslubiy qo'llanilishi jihatidan tahlil qilishga harakat qildik.

Ma'lumki, o'zbek tilida sifatlar belgi – xususiyatni ifodalash vazifasini bajaradi. Matnda ayni shu vazifani ado etayotgan sifatlar bir paytning o'zida ikki xil ma'no – denotativ va konnotativ ma'no kasb etadi. Denotativ ma'no sifat leksemalarning atash ma'nosi bo'lib, ularning bir qancha leksik- semantik guruhlariga tasniflanishida ham yetakchi mezon sifatida qaraladi. Konnotativ ma'no esa o'zida sifat leksemalarining uslubiy qirralarini namoyon etadi. Konnotativ ma'no so'zning denotativ ma'nosidan bir oz chekinishini talab qiladi. Xususan, badiiy asarlarda belgi bildiruvchi

sifatlar turfa xil ma'no tovlanishlari bilan morfologik uslubiyatga yaqqol misol bo'la oladi.

Milliy romanchiligimizning asoschisi Abdulla Qodiriy nafaqat adabiyot ilmini, balki adabiy til ilmini ham nozik tushungan, so'zga boy, mohir so'zshunos ijodkor edi. Uning "O'tkan kunlar" romanida sifat leksemalar yozuvchi badiiy niyatini aks ettirishda nihoyatda o'rinli qo'llanilgani bilan diqqatga sazovor. Asarning eng muhim yutuqlaridan biri ham sifat leksemalarda denotativ ma'no muallif nazarda tutgan konnotativ ma'noni to'sib qololmaganligidadir. Quyida biz sifat leksemalarining ijobiy va salbiy baho anglatuvchi uslubiy ma'nolari to'g'risida so'z yuritmoqchimiz.

Romanda qahramonlar tabiatini, tashqi ko'rinishini tasvirlashda foydalanilgan rang – tus sifatlari o'ziga xos konnotativ ma'nosiga ega. Masalan, quyidagi matnga diqqatimizni qaratsak: “*Saroyning to'rida boshqalarga qarag'anda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip – qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lganida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda*”.

Murakkab strukturali ushbu matnning o'zida 7 ta sifat leksema ishtirok etgan bo'lib, ularning 3 tasi (“*ko'rkamrak*”, “*qip-qizil*”, “*boshqacha*” sifat leksemalari) ijobiy ma'noni, qolgan 4 tasi (“*o'zga*”, “*yengil*”, “*serchaqchaq*”, “*qora*” kabi sifat leksemalar) salbiy ma'noni ifodalovchi semantik – uslubiy xususiyatga ega. Endi ularga alohida – alohida to'xtalib o'tsak, “*ko'rkamrak*” sifat leksemasi sifatning qiyosiy daraja shaklida bo'lib, chiroyli neytral sifat leksemasiga qaraganda ko'proq uslubiy bo'yoqdorlikka ega. Yuqoridagi matnda ayni so'z hujraga nisbatan qo'llanilayotgani va bu “*hujraning egasi boshqacha yaratilishda*” ekanligini inobatga olsak, bu so'z o'z ma'nosidan tashqari hujra egasiga nisbatan ijobiy taassurot uyg'otishga ham xizmat qilmoqda, xuddi shuningdek, “*qip - qizil*” va

“*boshqacha*” sifat leksemalari ham matnda yuqorida tilga olingan vazifani amalga oshirgan. Bil’aks, “*qora charog*’”, “*o’zga hujra*”, “*yengil tabi’atlik*”, “*serchaqchaq kishilar*” birikmalaridagi sifat leksemalari “*ko’rkamrak*”, “*qip - qizil*”, “*boshqacha*” sifat leksemalariga zid ravishda salbiy ekspressivlikka moyilroqdir. Asarda bunday tasviriy o’rinlarda sifat so’zlar subyektiv hodisa sifatida ko’proq namoyon bo’ladi. Chunki muayyan so’z asarda, albatta, qandaydir shaxs, hodisa, narsa – buyumga nisbatan munosabat bildirgandagina o’zining uslubiy xossasiga ega bo’ladi. Fikrimizni asoslash uchun yana xuddi o’sha asarga murojaat qilamiz: “*Og’ir tabi’atlik, ulug’ gavdalik, ko’rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko’zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit*“. Gapda qo’llanilgan sifat leksemalarni ayrim – ayrim tahlilga tortib ko’ramiz:

Og’ir sifat leksemasi, sifatlarning vazn- og’irlik bildiruvchi leksik-semantik guruhiga mansub so’z hisoblanadi. Biz namunada keltirgan gapda bu so’z ko’chma ma’noda qo’llanilgan bo’lib, vazmin, bosiq sifat leksemalariga ma’nan yaqin turadi. Biroq ayni paytda bu so’zning o’z ma’nosidan uzoqlashib, bundan oldingi matnda qo’llanilgan yengil sifat leksemasiga zid qo’yilishi mazkur so’zning okkazional ma’no anglatayotganligi va sifatlarning usluban rang- barangligiga misol bo’la oladi.

Ulug’ sifat leksemasi haqida ham xuddi shu fikrlarni aytishimiz mumkin. Bu yerda yozuvchi katta neytral sifat leksemasini qo’llashi ham mumkin edi, biroq unda badiiy matn o’zining uslubiy qimmatini, badiiy ta’sirchanligini yo’qotgan bo’lar edi. Xuddi shuning uchun ham tilda so’zlarning okkazional ma’noda qo’llanilishlari badiiy uslubda faol amalga oshadi. Matnda izchillik bilan foydalanilgan *ulug’*, *ko’rkam*, *oq*, *kelishgan* sifat leksemalari hamkorlikda ijobiy semaga, ya’ni hujradagi yigitning tashqi tasviri va hujra tasviri hamohangligiga mos ravishda qo’llangan. Bu yerda faqat *qora* leksemasi biroz o’ylantiradigan. Chunki biz namunada keltirgan birinchi gapda bu so’z salbiy sema ifodalash uchun xizmat qilgan edi. Endi esa aksincha. Buni matndagi har ikkala birikmani qiyoslab

ko'rganimizda yanada aniqroq ko'rishimiz mumkin bo'ladi: "*qora charog' sasishi*" kishida qanday yoqimsiz kayfiyatni uyg'otsa, "*qora ko'z, qora qosh*" birikmalari shunchalik iliq taassurot paydo qiladi. SHundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, muayyan sifat leksemasi bir paytning o'zida ham ijobiy, ham salbiy konnotativ ma'no hosil qila oladi. Ayni paytda kontekstda faqat bir jihatni yo ijobiylikni, yo salbiylikni ifodalashi mumkin. So'zning uslubiy ma'no qirrasi faqatma-faqat kontekstdagina ayonlashadi.

Har qanday sifat leksemalari badiiy matndan tashqari oddiy so'zlashuv nutqida ham faol okkazional ma'no kasb etishi mumkin. Hatto ba'zi o'rinlarda bu ma'no sifatlarning denotativ ma'no ifodalashidan ham ko'ra ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, maza – ta'm ma'nosida qo'llanuvchi shirin, achchiq leksemalari oddiy so'zlashuv nutqida ko'proq ko'chma ma'noda qo'llanilib, kishidagi turli xil ruhiy holatlar yoki tashqi ko'rinish tasvirlarida keng foydalaniladi. Masalan, Kecha Muslimaxonning shiringina qizchasini erkalab turgan edi, bugun esa bu ahvol. (So'zlashuv nutqidan).

Mazkur gapda *shiringina* sifat leksemasining maza – ta'm bildiruvchi denotativ ma'nosi ikkilamchi o'ringa tushib, tashqi ko'rinish tasviriga nisbatan chiroyli, yoqimtoy ma'nosi birlamchi o'ringa chiqqan. So'zlashuv nutqidan bunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Umuman olganda, okkazional semali sifat leksemalarning tildagi ahamiyati shundan iboratki, ular nutq jarayonida, jumladan badiiy matnda uslubiy bo'yoqdorlik va emotsionallikni oshirishga ortiq darajada xizmat qiladi. SHu jihatdan ular matnda va og'zaki nutqda keng qo'llanilish doirasiga ega hisoblanadi. Til taraqqiyoti va ongdagi evrilishlar natijasida muayyan sifat leksemalarining okkazional ma'no qutblari ham o'zgarishlarga uchrab turadi. Bu esa uslubshunoslikda o'rganilishi zarur bo'lgan yangi – yangi ilm ufqlarini ochadi, deb komil ishonch bilan ayta olamiz.

3.5. Tinch va notinch holatlarni ifodalovchi sifatlar

Bu turdagi sifatlar predmetga xos bo'lgan vaziyat, holat haqida ma'lumot beradi. Quyidagi so'zlarni misol qilishiimiz mumkin: tinch, jim, jim jit, teg, osuda, betinch, notinch. Tinch holatlarni ifodalovchi so'zlar harakatsiz yoki tovushsiz holat ma'nosi bilan birlashadi. Tinch so'zi harakatsiz, tovushsiz holat ma'nosini bildirish bilan birga umuman to'polonsiz, g'ala-g'ovursiz ma'nosini ham bildiradi.

Bunda harakat, tovush bo'lishi ham mumkin. Lekin, u me'yoriy holat hisoblanadi. **Jim** so'zi asosan tovushsiz holatga va kam darajada harakatsiz holatga nisbatan qo'llanadi. Jim jit faqat tovushsiz olatgan nisbatan qo'llanadi va jim so'ziga nisbatan ma'noni kuchaytiribroq ifodalaydi. Sokin tovushsiz holat ma'nosini bildiradi va ko'proq jim holatni ifodalash uchun qo'llanadi. Bunday holatlarni misollar orqali ko'rib o'tamiz.

1. *Ko'pincha hamma yoq tinch, choyxonada bedanalar sayraydi (Oybek).*
2. *Endi G'ulomjon tiriklik nimaligini bildirmay jim o'tirishni itning ketishini chidam bilan kutish kerak (M.Ismoilij).*
3. *Zumrad ko'zlarini qorong'u bo'shliqqa tikkanicha qimirlamay yotardi, kecha jimjit, faqat suvning shivirlashi eshitilardi (S.Zununnova).*
4. *Cholning tovushi o'zgardi. O'pkasi to'ldi. Birpas tek qolib keyin gapirdi. (A.Qahhor).*
5. *Butun shahar xalqi sokin uyquda, orom olmoqdasan sen ham osuda (H.Rasul).*

Birinchi gapdagi **tinch** so'zi obyektiv olam bilan bog'liq vaziyat haqida axborot beradi va g'am-tashvishdan, xavf-xatardan xoli, betashvish, osuda, osoyishta semalarini ifodalaydi. Ikkinchi misolda **jim** so'zi subyektning tovushsiz, sukut saqlab o'tirish kerakligi haqida ma'lumot beradi. Uchinchi gapdagi **jim-jit** subyektning ob'ektning hech kim ko'rinmaydi, hech kim yo'q, ovozsiz, tinch ma'nolari haqida axborot beradi. To'rtinchi gapdagi **tek** so'zlashuv uslubiga xos bo'lib jonli narsalarga nisbatan qo'llaniladi.

Ushbu misolda teg subyektining harakatsiz qimirlamasdan va ovoz chiqarmasdan jim qolganligiga ishora qilmoqda. Beshinchi misolda tinchlik

holatini ifodalovchi ikki soʻz qoʻllangan: **sokin, osuda**. Ushbu soʻzlar quyidagi semalarga ishora qilmoqda: **sukunatga choʻmgan, jimjit, osoyishta, tinch, betashvish, xotirjam, betinch, notinch** kabi soʻzlar ham obyektiv olam bilan bogʻliq vaziyatlar haqida maʼlumot beradi.

1. *El betinch, odamlarning yuzlari gʻamgin, suhbatlari sertashvish edi. (P.Tursun).*
2. *Uning (Hakimboyvachaning) rangi oʻchgan, koʻzlari allaqanday notinch (Oybek).*
3. *Notinch koʻcha boʻlganligidan hech zogʻ koʻrinmas edi (Oybek).*

Keltirilgan birinchi misoldagi **betinch** soʻzi quyidagi semalarga ishora qilmoqda: **tinchligi, osoyishtaligi yoʻq, halovati buzilgan, tashvishli, bezovta, notinch**. Ikkinchi gapdagi **notinch** esa **tinchi, osoyishi buzilgan, bezovta besaramjon, betinch** semalarini ifodalamoqda. Uchinchi misolda keltirilgan **notinch** soʻzi predmet bilan bogʻliq boʻlgan **vahima, qoʻrquv, tartibsizlik, ur-yiqit toʻpolon** semalari haqida xabar bermoqda.

Umumiy xulosalar

Bitiruv-malakaviy ishimiz yakunida belgi bildiruvchi so'zlar semantikasi yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik:

1. Tilning lug'aviy sathi sistemalilik xususiyatiga ega bo'lib, borliqdagi sistemelilik unda o'z in'ikosini topadi. Mashhur tilshunos olim F.de Sossyur fikriga ko'ra "Butun til mexanizmi o'xshashlik va tafovutlar atrofida aylanadi". Ayni shu fikr isboti o'laroq, leksik tizimdagi birliklar o'zaro paradigmatic, sintagmatic va iyerarxik munosabatga kirishadi. Paradigma a'zolari o'rtasida umumiy va zid jihatlar farqlanadi.

2. Belgi bildiruvchi so'zlar tilda alohida paradigmani tashkil etadi. Mazkur leksemalar sirasiga morfologik jihatdan yondashilganda sifat, ravish turkumlari, fe'ning sifatdosh, ravishdosh shakllari kiradi. Lekin mazkur guruhlariga oid leksemalar bir qator leksik-semantik, grammatik xususiyatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi.

3. Sifatlar tadqiqotchilar tomonidan semantik jihatdan 4 tadan 9 tagacha guruhga ajratib o'rganilmoqda. Olimlarning bunday tasniflari orasida taniqli o'zbek olimasi M. Sodiqova tomonidan ishlab chiqilgan tasnif e'tiborga molik. Bu tasnifga binoan sifatlar semantik jihatdan to'qqiz guruhga ajratiladi. Har bir guruhga oid sifatlar ham o'z navbatida ichki leksik – semantik guruhlariga bo'linadi. Jumladan, holat bildiruvchi sifat leksemalar tabiiy holat belgilarini ifodalovchi LSG, nuqsoniy belgilarni ifodalovchi LSG, ruhiy holat ifodalovchi LSG, kishining hayotiy holatini ifodalovchi LSG lari singari o'nga yaqin kichik – kichik guruhlariga bo'linadi. Holat ma'nolari turlicha, masalan: tabiat olamidagi har turli holatlar, hayvonot, qushlar olamidagi va inson jismi, ruhiyatining munosabatlariga oid holatlardir.

4. Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar insonda yuz beradigan yoqimli va yoqimsiz tuyg'ularni, tinchlik, farog'at hayajonning va ma'nolanishi, dadillik va taraddudlanish, quvonish va g'azablanish, qo'rquv va shodlik kabi ijobiy va salbiy emottsional holatlarni ifoda etish bilan boshqa leksik semantik guruhdani holat sifatlaridan ajaralib tuladi.

5. Jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi sifatlar ham turli ma'no nozikliklari bilan farqlanadi. Masalan:

1. Ular dushmanlar bilan kurashda o'zlarini bardam jangchilar ekanliklarini ko'rsatdilar.

2. Ota zalvorli tayog'ini qorga niqtab bosib, bardam qadam tashladi.

6. Belgi bildiruvchi so'zlar badiiy nutqda fikrning aniqligi, tasvirlanayotgan obyektga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni yaqqolloq ifodalash uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: "Sharq" nashriyoti matbaa konserni bosh tahririyati, 1999.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: "O'zbekiston", 2013.

II. Ilmiy adabiyotlar

4. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987.
5. Абдурахмонов А. *Қизил, оқ ва қора* сўзларининг лексик – семантик хусусиятлари // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), СамДУ асарлари, янги серия, 346 – чиқиши, Самарқанд: 1978.
6. Абдурахмонов Х., Рафиев А., Шодмонқулова Д. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
7. Абдурахмонов И. *Баланд* лексемаси лексик маъноларининг нутқда қўлланувчанлиги // Ўзбек тили стилистикаси масалалари, ТошДУ асарлари, 427 – чиқиши, Тошкент: 1972.
8. Абдурахмонов Ғ., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
9. Бафоев Б. Навоий назми тилида *қизил* синонимлари, синтагмалари ва улардаги маънодошлик // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 2-сон.
10. Бегматов Е. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.

11. Бобожонов Ш. “Эски” лексемасининг семантик тавсифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003, 1 – сон.
12. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. – Тошкент: Фан, 1988.
13. Ёриев Б. Сифатларнинг стилистик хусусиятлари (М. Шайхзода шеърини мисолида) // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ нашри, 1980.
14. Иброҳим Ҳаққул. Қора ранг – муборак ранг // Иброҳим Ҳаққул. Занжирбанд шеър қошида (Навоий сабоқлари). Тошкент: Юлдузча, 1989.
15. Иброҳим Ҳаққул. Яна қора ранг талқини ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 3- сон.
16. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 1998.
17. Искандарова Ш. Сифат // Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (морфология). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.
18. Йўлдошев Б. Саид Аҳмад асарлари тилида ранг билдирувчи сифатлар ва уларнинг стилистик функциялари ҳақида // Ўзбек тили грамматикаси, диалектологияси ва лексикологияси масалалари (илмий масалалар тўплами), янги серия, 319 – чиқиши, Самарқанд: СамДУ нашри, 1977.
19. Йўлдошев Б. Бадиий асар тили ва услубини ўрганиш // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ нашри, 1980.
20. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.

21. Мадраҳимов О. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир // ЎзФА ахбороти, ижтимоий фанлар серияси, Тошкент: 1957, 1-сон.
22. Мадраҳимов И. Ўзбек тили лексемаларининг таркибига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, 4 – сон.
23. Мамаражабова З. Белги билдирувчи сўзларнинг стилистик хусусиятлари ҳақида // Тил ва адабиёт таълими, 2003, 3 – сон.
24. Мамаражабова З. Кўриниш сифатларининг грамматик хусусиятлари // Тил ва адабиёт таълими, 2002, 2-сон.
25. Мамаражабова З. Шакл сифатларининг тузилиши ва таркиби // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003, 1-сон.
26. Маматов А. Е. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. – ДДА, Тошкент: 2000.
27. Маматов М. Ш. Сифат ва отларнинг айрим стилистик хусусиятлари ҳақида // Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: 1983.
28. Мирзаева Н. А. Чехов ва А. Қаҳҳор поетикасида ранг рамзлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, 4 – сон.
29. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975.
30. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
31. Нурмонов А., Саримсоқов Б. Тил системасида сўзнинг ўрни ва сўзларни туркумларга ажратиш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999, 5 – сон.
32. Раҳматуллаев Ш., Абдурахмонов И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўлам сифатлари // Ўзбек тили ва адабийоти, 1972, 3 – сон.
33. Содиқова Г. Сизги ифодаловчи сифат семемалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1977, 3-сон.
34. Тожиев Й. Ўзбек тилида аффиксал синонимия. Тошкент: ТошДУ нашри, 1981.

35. Турсунов У., Мухторов Ж. Сифат // Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

36. Қурбонова М. Фитрат – тилшунос. – Тошкент: Университет нашриёти, 1996.

37. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

38. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2002.

39. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.